



"OILA VA GENDER"  
ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI

---

# GENDER TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI VA USULLARI

---



Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori

--	--

5146  
ni tashkil  
usullari



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

N.Egamberdiyeva, S.Xodjayev, U.Nurullayeva

# GENDER TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI VA USULLARI

"Mahalla va oila" nashriyoti  
Toshkent – 2024



UO'K: 316.346.2-047.37(075.8)

BBK: 60.7ya73

E 18

**Egamberdiyeva N., Xodjayev S., Nurullayeva U.**

Gender tadqiqotlarini tashkil etishning xususiyatlari va usullari [Matn] : o'quv qo'llanma / N.Egamberdiyeva, S.Xodjayev, U.Nurullayeva. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024. – 92 b.

*Mas'ul muharrir:*

**X.Abduramanov** – *i.f.d., prof.*

*Taqrizchilar:*

**A.Seitov** – *sots.f.d, dos*

**X.Saydivaliyeva** – *yu.f.n., dots*

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son qaroriga 3-ilova 69-band – "Oila, xotin-qizlar va gender tenglik shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan oilaviy munosabatlarga aralashib, er va xotin orasida nizo chiqarilishini oldini olish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari uchun uslubiy qo'llanmalar va targ'ibot materiallarini tayyorlash" bo'yicha amalga oshirildi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada sotsiologik tadqiqot va uning usullari vositasida gender bilan bog'liq holat va muammolarni o'rganish imkoniyatlari yoritildi. Bunda gender tadqiqotlar, ularga xos bo'lgan xususiyatlar, tadqiqot metodologiyasi, tadqiqotning asosiy bosqichlari, muammoni aniqlash, ilmiy farazni ilgari surish, tanlashni amalga oshirish, tadqiqotni tashkil etish, birlamchi ma'lumotlar to'plash masalalariga asosiy e'tibor qaratildi.

Qo'llanma joylarda gender tenglik va u bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni o'rganish hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda tizim xodimlari faoliyatini uslubiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqildi.

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 29-oktyabrda 7-sonli ilmiy kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8908-1-9

© "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti, 2024

© "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024

## KIRISH

Insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lgan gender tengligi jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish negizida inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Gender tenglikni ta'minlash maqsadida gender asosidagi zo'ravonlik va kamsitishning barcha ko'rinishlariga barham berish, ayollar va qizlar, erkaklar va o'g'il bolalarning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan teng foydalanishini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur. Bu umumiy va rahbarlik lavozimlarida ishga joylashish imkoniyatlariga ham tegishli masala hisoblanadi.

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq gender tengligi xalqaro inson huquqlari huquqining bir qismiga aylandi. Inson huquqlari tarixidagi ushbu muhim hujjatda "barcha insonlar erkin, qadr-qimmat va huquqlari bo'yicha teng tug'iladilar" va "har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklardan irq, din yoki boshqa maqomga ko'ra, ya'ni hech qanday farqlarsiz foydalanadi. Gender tengligini ta'minlash ehtiyoji so'ngi yillarda gender tadqiqotlarining ilmiy bilimlar doirasida jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanishi uchun xizmat qilmoqda.

Mingyillik deklaratsiyasining maqsadlaridan biri gender tengligini ta'minlash va ayollarning huquqlarini kengaytirishdan iborat. Ayollar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligi sivilizatsiyalashgan davlat rivojlanishining zarur sharti sifatida ratsional qabul qilinishi kerak. Mamlakat fuqarolariga jinsidan qat'iy nazar, jamiyatning iqtisodiy resurslaridan, jumladan, yer, ko'char va ko'chmas mulk, byudjet mablag'lari, moliyaviy aktivlar, kreditlar, ijtimoiy jamg'armalar, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot va boshqa resurslardan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash muhim vazifadir.

Ijtimoiy va tabiiy fanlarda metodologiya biror muammoni o'rganish davomida qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va tushunchalarni birlashtirgan

DENOV TADBIRKORLIK  
VA PEDAGOGIKA  
INSTITUTI ARM  
№ 5146



tizimdan tashkil topadi. Ushbu soha nazariy va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishning vositalari, sabablari hamda tamoyillarini o'rganadi. Bugungi kunga qadar gender tenglik va gender madaniyati masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilgan bo'lsada, gender munosabatlarni tadqiq qilish metodologiyasi u qadar yoritilmagan.

Ma'lumki, gender tadqiqotlari odamlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ko'plab muammolarni aniqlashga, zamonaviy jamiyat muammolariga yechim topishga qaratilgan. Jinslararo (gender) munosabatlar tahlili tadqiqot muammolaridan biri sifatida gender tengsizlik, zo'ravonlik va kamsitish holatlarini baholash imkonini beradi. Gender tadqiqotlari metodologiyasining asosini jamiyatda erkak va ayollarning bajarayotgan rollari hamda munosabatlari orqali qaror topgan boshqaruv hamda hukmronlikni tahlil qilish tashkil etadi<sup>1</sup>. Gender va ayollar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga xos bo'lgan deyarli barcha asosiy muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda jinslararo munosabatlar doirasida tengsizlikning namoyon bo'lish qonuniyatlari, yuzaga kelish sabablari, bartaraf etish yo'llari va vositalari singari masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotlar jamiyatda erkak va ayollar bajarayotgan ijtimoiy rollariga xos bo'lgan xatti-harakatlarning mohiyatini, an'anaviy turmush tarzi, stereotiplar va qadriyatlar transformatsiyasi kabi turli sohalaridagi jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi. Gender munosabatlarini tadqiq etish natijalaridan oilaga oid, demografik siyosat konsepsiyalarini ishlab chiqishda; davlat boshqaruvida; qonun hujjatlari, ommaviy axborot vositalari, o'quv-uslubiy materiallarning gender ekspertizasini o'tkazishda; aholiga yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati kabi sohalarda foydalaniladi.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, gender munosabatlari jins kategoriyasi asosida shakllangan ijtimoiy guruhlar sotsiologiya va psixologiyaning obyekt sifatida asosan shu soha vakillari tomonidan o'rganilgan. Mavjud nazariyalar gender munosabatlar muammosini juda keng talqin qilgan. Ularga ko'ra, gender munosabatlar muammolariga jins bo'yicha tengsizlik, erkaklar va

<sup>1</sup> Социология гендерных отношений: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. З. Х. Саралиевой. М. : РОССПЭН, 2004. С 14.



ayollar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik xususiyatlardagi farqlar, turli ijtimoiy institutlar va tashkilotlarda erkaklar hamda ayollar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan u yoki bu tarzda bog'liq barcha holatlar kiradi. Gender munosabatlarni tadqiq qilish metodologiyasi ularni sifatiy va miqdoriy jihatdat tahlil qilish, tadqiqotlarning asosiy tendensiyalarini aniqlaydigan bir qator umumlashmalarni ilgari surish imkonini beradi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi gender munosabatlarni tadqiq qilish metodologiyasini yoritish orqali jinslararo munosabatlardagi muammolarni tadqiq qilishda qo'llaniladigan usullar mazmunini hamda ularning o'ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat.



## GENDER TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gender tadqiqotlarida gender munosabatlari mavzusi alohida ahamiyatga ega. Chunki ular murakkab, ko'p bosqichli va ko'p qirrali hodisa bo'lib, zamonaviy erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishiga xos bo'lgan deyarli barcha asosiy muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. **Gender munosabatlarni o'rganish rollar asosida xatti-harakatlarning mazmunini har tomonlama ochib berishga, shuningdek, hayotning turli sohalaridagi munosabatlar subyekt sifatida erkaklar va ayollarning ijtimoiy hamda psixologik holatlarini namoyon etishga imkon beradi.** Jinslararo munosabatlarni tadqiq etish natijalaridan davlat oila, xotin-qizlar, yoshlar va demografik siyosat konsepsiyalarini ishlab chiqishda; davlat boshqaruvida; qonun hujjatlari, ommaviy axborot vositalari, o'quv-uslubiy materiallarning gender ekspertizasini o'tkazishda; aholiga yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati sohasida va boshqalarda foydalanish mumkin. Gender tadqiqotlari jinslar teng huquqliligi masalasini o'rgangan holda davlat doirasida qanday ijtimoiy kafolatlar berilishi kerakligini tushunish uchun qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqilishiga, davlat dasturlari va siyosatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat boshqaruvida gender yondashuvidan foydalanishning yorqin misoli Yevropa Ittifoqida joriy etilayotgan gender meynstrimdir. Gender meynstrim barcha huquqiy hujjatlarga, milliy dasturlarga gender kun tartibi va gender tengligi bo'yicha bo'limlarni kiritishni nazarda tutadi. Bu ayollar va erkaklarning jamoat sohasida teng qabul qilinishi, bajarilgan mehnat uchun teng haq olishi va hokazolarni hisobga oladi. Shuningdek, buning uchun tegishli byudjet ajratishni nazarda tutadi. Finlyandiya Iqtisodiy rivojlanish va bandlik Vazirligida gender tengligi uchun mas'ul bo'lgan maxsus boshqarma mavjud. U turli vazirliklar va davlat idoralarning mazkur masalada ish olib boruvchi bo'limlari bilan o'zaro

hamkorlik qiladi. Mazkur boshqarma va bo'limlar boshqaruvning barcha pog'onalari hamda sohalarida gender kun tartibini targ'ib qiladi va gender tengligi mantig'idan kelib chiqqan holda ish jarayonini tashkil etishga yordam beradi. U o'z ichiga kengroq doiradagi muammolarni qamrab oladi. Gender tengligi nafaqat ayollarga ijtimoiy yordam berish yoki ularni rag'batlantirish, balki bola parvarishi uchun nafaqa va hokazolarni ham anglatadi. Mazkur siyosat oilaviy munosabatlarining barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Gender tadqiqotlarida obyekt va mavzu tanlash ayollar ijtimoiy-demografik toifasini o'rganuvchi tadqiqotlardan biroz farq qiladi. N.L.Pushkarevaning fikriga ko'ra, gender tarixi "ayollar tarixi"dan farqli o'laroq o'zining predmeti sifatida aynan tarixiy evolyusiya jarayonini rekonstruksiya qilish nuqtai nazaridan jinslar dialogini ko'rib chiqadi.

Mashhur faylasuflar J. Lakan, J. Derrida va ularning izdoshlari bo'lgan postmodern feminizm nazariyasi tarafdorlari Yu. Kristeva va L. Irigarey gender tarixi bilan bejizga shug'ullanishmagan<sup>2</sup>. Shubhasiz, xotin-qizlar masalalaridagi tadqiqotlarning rivojlanishi yagona fan doirasidan chiqqan holda multikulturalizm yo'nalishiga o'tdi va davom etmoqda. Madaniyatlarning haqiqiy muloqoti bo'lishi uchun sinfiy qarama-qarshiliklar va gender tengsizligini bartaraf etish uchun akademik muhitda mavjud bo'lgan nomutanosibliklarni tan olish va amaliyotda tematik bir xillikni bartaraf etish kerak edi.

**Xotin-qizlar va gender yo'nalishidagi tadqiqotlar o'rtasidagi farqlarni** quyidagicha ta'riflash mumkin<sup>3</sup> 1-jadval).

<sup>2</sup> Пушкарева Н. Л. Историческая феминология, женская и гендерная история: итоги и перспективы, 1999, с. 26-27. [https://portal.edu.asu.ru/pluginfile.php/455877/mod\\_resource/content/1/](https://portal.edu.asu.ru/pluginfile.php/455877/mod_resource/content/1/)

<sup>3</sup> Воронина, О.А. Традиционные философские, социологические и психологические теории пола / О.А. Воронина // Теория и методология гендерных исследований. курс лекций / под общ. ред. О. А. Ворониной. - М.: МЦГИ - МВШСЭН - МФФ, 2001.



1-jadval

Farqlar	Ayollar masalalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar (Women's Studies)	Gender tadqiqotlari (Gender Studies)
Kelib chiqish vaqti	1970-yillar	1980-yillar
Kelib chiqish sabablari	Xotin-qizlar tajribasi borasida sukut saqlanganligi, jamiyatda ayollarning kamsitilishi, ayollar va boshqa toifalar huquqlarining paydo bo'lishi va hamkorligi	Ayollar va erkaklarni qarama-qarshi qo'yish oqibatidagi noqulayliklar, erkaklar tajribasidagi ko'pqirralilikni tan olmaslik, erkaklar va ayollarga ajratishdan ko'ra jins bo'yicha rollar va identifikatsiya masalasi oldinga chiqdi
Asosiy vazifalar	Xotin-qizlar ta'limi, jamiyat taraqqiyotiga ayollarning qo'shayotgan xissasini anglab yetish, ayollarni ayollar nuqtai nazaridan o'rganish, tushunchalar apparati va metodologiyasining rivojlanishi	Erkaklarga xos xususiyatlar, turli toifadagi erkaklar va gender o'zini anglashni o'rganish, ayol va erkaklarni tadqiq qilishdan jins va unga aloqador bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga o'tish
Tadqiqot obyekti	Xotin-qizlar muammolari, ayollarning tarix va fanga qo'shgan hissasi	Erkaklar va ayollar yoki ularning birgalikdagi muammolari, jins va gender bo'yicha o'zini anglash
Tadqiqot predmeti	Ayollarning kamsitilishi, tengsizlik, tazyiq va zo'raonlik	Gender munosabatlari, jinslar o'rtasidagi farq va o'xshashliklar, gender tarixi, genderning madaniyatda aks etishi

Gender munosabatlarini o'rganishga kompleks yondashuv gender munosabatlaridagi an'anaviy tartibning o'zgarishi yoki saqlanishini belgilovchi omillar doirasini aniqlash imkonini beradi. Bular ichida gender munosabatlarining subyektlari va gender stereotiplarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> Готлиб, А.С. Введение в социологическое исследование: качественный и количественный подходы. Методология. Исследовательские практики: учеб. пособие / А.С. Готлиб. - Самара: Изд-во «Самарский университет», 2002. - 424 с.



Tadqiqotchilar tomonidan ko'p hollarda gender munosabatlarining ikkita subyekt tufayli mavjudligi haqidagi yondashuv unutilgani bois gender masalalari odatda hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Ammo mazkur munosabatlarining subyektlari gender munosabatlarining o'zgarishi yoki saqlab qolinishi jarayonining hal qiluvchi omillari sifatida muhim ahamiyatga ega<sup>5</sup> va o'rnatilishi lozim

Gender stereotiplar mazkur jarayonda subyektlarning munosabatlari va ularning xatti-harakatlari amalga oshirilishi o'rtasida o'tkazuvchi rolni bajaruvchi muhim omil sifatida gavdalanadi. Ushbu omil asosan gender munosabatlari o'zgargan sharoitda an'anaviy xulq-atvorning barqarorlik darajasini tushuntirib beradi.

Gender tadqiqotlari obyektining murakkabligi o'rganishlar davomida bir qator usullari va metodikalarni qo'llash lozimligini ko'rsatadi. Ma'lumki, har qanday nazariy mulohazalar va umumlashmalar empirik jihatdan tekshirilmasa va qo'llab-quvvatlanmasa haqiqiy hisoblanmaydi. Shuning uchun ham gender munosabatlarini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning **miqdoriy va sifatiy usullaridan** keng foydalaniladi.

Gender tadqiqotlar metodologiyasining o'ziga xosligi tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va usullarida namoyon bo'ladi. Tarixiy retrospektsiya nuqtai nazardan o'tmishda, hozirda va kelajakda ko'rib chiqiladigan hodisalar, ijtimoiy voqelik jarayonlari tadqiqotining obyekti sifatida o'rganiladi. Ijtimoiy voqelik, hodisa va jarayonlarning gender jihatlari tadqiqotlarning predmeti hisoblanadi. Gender jihatlarni tadqiq etish har doim jins ko'rsatkichi bo'yicha tengsizlik, kamsitish va zo'raonlik masalasiga borib taqaladi. Shuning uchun tadqiqotning maqsadi jinsga ko'ra aniq va yashirin kamsitishlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi hamda kompleks ko'rsatkichlar va usullarni talab qiladi.

Gender tadqiqotlarining ustuvor vazifalariga inson hayotining tarbiya, ta'lim, oila, mehnat, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat singari muhim sohalarida jinslararo munosabatlarni qurish mexanizmini tadqiq etish kiradi.

Tadqiqot predmeti, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda gender tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan bir nechta o'zaro bog'liq va bir-birini taqazo qiladigan turkumlarni ajratish mumkin. Bular:

<sup>5</sup> Зборовский, Г.Е. Социальное сравнение как повседневное явление и социологическая проблема / Г.Е. Зборовский // Социологические исследования. - 2005. - № 2.

- turli faoliyat sohasidagi gender jihatlar;
- gender ekspertiza;
- gender munosabatlar;
- erkaklarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

**Birinchi turkum** faoliyatning turli sohasida gender jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Bularga gender tadqiqotlarining quyidagi yo'nalishlari kiradi:

- mehnat va bandlikning gender jihatlari;
- shahar va qishloq aholisining mehnat va yashash sharoitlarining gender jihatlari;
- ishsizlik dinamikasining gender jihati;
- ish haqining gender farqlari: omillar va tendensiyalarning mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy tahlili;
- uy mehnatining gender taqsimoti: asosiy tendensiyalar va iqtisodiy baholash masalalari;
- hududiy birliklaridagi ijtimoiy va gender tengsizlik;
- sog'liqni saqlash tizimida gender tengligi ko'rsatkichlari;
- ta'lim sohasida erkaklar va ayollar hamda boshqalar.

Ushbu yo'nalishlarni o'rganishning o'ziga xosligi gender monitoringi va statistik ma'lumotlarni gender tahlil qilish metodikasi uchun yangi ko'rsatkichlar – indikatorlar tizimini ishlab chiqishga olib keldi. Keyinchalik, ushbu indikatorlardan O'zbekistonda mavjud davlat statistik ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish uchun foydalaniladi va statistik ma'lumotlarni to'plashning yangi ko'rsatkichlarni joriy etishga olib keladi.

**Ikkinchi turkum** esa gender ekspertizaga qaratilgan. Gender ekspertiza tushunchasining mohiyatini uning tarkibiga kiradigan ikkita atama belgilaydi. Ekspertiza (lotincha expertus – tajribali) "mutaxassis (ekspert) tomonidan biror-bir masalani fan, texnika, san'at sohasida maxsus bilimlar yordamida tadqiq etish" degan ma'noni anglatadi. Tadqiqotlarda gender tushunchasidan jamiyat tomonidan erkak va ayol rollari, xatti-harakati, aqliy va hissiy xususiyatlaridagi farqlarni keltirib chiqaradigan murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon hamda uning natijasi sifatida genderning ijtimoiy tuzilishi sifatida foydalaniladi (1-rasm).

**Gender-huquqiy ekspertiza** — normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 martdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 192-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4777291>



**1-rasm. Gender-huquqiy ekspertiza**

Shuning uchun qonun hujjatlarining gender ekspertizasi gender metodologiyasiga asoslangan tahlil hisoblanadi. Gender metodologiyasining mohiyati erkaklar va ayollar hayotining maqomlari, rollari va boshqa jihatlaridagi farqni oddiy tavsiflashga emas, balki gender rollar va munosabatlar orqali jamiyatda tasdiqlangan hokimiyat va hukmronlik holatini tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

**Uchinchi turkum** hayotning turli jabhalarida yuzaga keladigan gender munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini empirik aniqlashga qaratilgan. Unda gender munosabatlarining ijtimoiy, mehnat, huquqiy, psixologik, madaniy, lingvistik, tarixiy va boshqa ko'plab sohalardagi namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Gender munosabatlari turli ijtimoiy sohalarda, boshqaruv va siyosatda, oilada erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi. Jamoatchilik sohasida iqtisodiyot, siyosat, mafkura va madaniyatdagi munosabatlar; xususiy sohada oila, nikoh, do'stlik va jinsiy munosabatlar tahlil mavzusiga aylanadi.

**To'rtinchi turkum** erkaklarni tadqiq etishga qaratilgan. Ma'lumki, tarixan xotin-qizlarning huquqi va manfaatini himoya qilish maqsadida ayollar



tadqiqotlari olib borilgan. Bunda erkaklarning jamiyatdagi holati va o'rnini tadqiq etish ehtiyoji qondirilmagan. Gender tadqiqotlarining o'ziga xosligi aynan shu sohani ham qamrab olganligidadir. Mazkur tadqiqotlar nafaqat ayollarga nisbatan diskriminatsion (kamsituvchi) jihatlarni, balki erkaklarga taalluqli bo'lgan barcha holat va jihatlarni qamrab oladigan bilim sohasini ham o'z ichiga oladi.

"Erkaklar tadqiqotlari"ga doir shu yo'nalishdagi ta'limotlar shakllanishining asosiy bosqichlarini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqiroz va og'ishlarni aniqlashga, bu holatda erkaklardagi tarbiya va ijtimoiylashuv usullari, mexanizmlari, yo'llari, xususiyatlarini tahlil qilishga, erkak gender rolining shavqatsizligini bartaraf etishning muqobil yo'llarini (xususan, ta'lim tarbiyada ota-onaning ikkalasini faol ishtirokini ko'zda tutadigan "yangi ota-onalik" orqali) taklif qilishga harakat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, gender tadqiqotlarning o'ziga xosligini ko'rsatadigan jihat uning metodologiyasi va metodikasi sanaladi. Agar sotsiologiya doirasida jinsni tadqiq etish yarim rolli yondashuvga tayansa, gender tadqiqotlar metodologiyasi ijtimoiy-konstruktivistik paradigмага suyanadi. T.Parsons tomonidan taklif qilingan yarim rolli yondashuvda asosiy e'tibor oiladagi jinsiy rollarning differensial taqsimlanishining ijobiy funksiyalariga qaratiladi. **Ekspressiv rol** oilada ichki muvozanatni o'rnatishdan iborat. Bunga uy bekasining roli misol bo'la oladi. **Instrumental rol** esa oila va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni ko'zda tutadi. Mazkur rollarga himoyachi, ta'minlovchi, boquvchi rollari kiradi. T.Parsonsnig fikricha, instrumental rol doimo erkakka, ekspressiv rol esa ayolga tegishli bo'ladi<sup>6</sup>. Ammo bugungi kunda bu borada qat'iy fikr aytish qiyin.

Oila uchun erkakning kasbiy faoliyati va daromadi nafaqat tirikchilik manbai ekanligi, balki bu daromad oilaning ijtimoiy mavqeini, turmush tarzini belgilab berishi bilan ham nihoyatda muhimdir. Erkak kishining ijtimoiy nufuzli faoliyati uning oiladagi ustunligini, ayolning uy ishlari bilan shug'ullanishi esa uning bo'ysunuvchi rolini belgilaydi. T. Parsonsga ko'ra, rollarning bunday taqsimlanishi chuqur funksional xususiyatga ega bo'lib, munosabatlar tizimida er-xotinlar o'rtasida hokimiyat, maqom va

<sup>6</sup> Парсонс Т. Система современных обществ. Москва: Аспект-Пресс, 1998. С. 16.



nufuz uchun kurashishda ehtimoliy raqobat yuzaga kelishidan dalolat beradi.

Ijtimoiy-konstruktivistik paradigma gender-rol yondashuvidan farqli o'laroq, hukmronlik va hokimiyatning gender munosabatlarini o'zgartirish masalasini ko'taradi. Gender tabaqalanish tartibini o'zgartirish erkaklar va ayollar faoliyatining tabiatini o'zgartirishga yordam beradi, hayotning turli sohalarida ularning shaxsiy o'zini-o'zi anglashi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi kunda gender tadqiqotlarda asosiy e'tibor erkaklarning hukmronligi masalasiga emas, balki gender munosabatlarning barcha tuzilmalarida qanday namoyon bo'lishi, tuzilishi va rivojlanishi, erkaklar va ayollarning shaxsiy taraqqiyotiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Gender masalalarini o'rganishda tadqiqot usullarida ham o'ziga xoslik mavjud. Tadqiqotchi tadqiqotlarda miqdoriy va sifatiy usullardan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlik muammosiga har doim duch keladi. U yoki bu usulni tanlashning maqsadga muvofiqligi tadqiqot strategiyasi va usullarining ustuvorligini belgilaydi. Aksariyat hollarda gender tadqiqotlarda kelib chiqish sabablari va ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, latent (yashirin) diskriminatsiyani ochiqlash kabi maqsadlarda ko'proq sifatiy usullardan foydalaniladi.



## TURLI FANLAR (SOHALAR) DOIRASIDA GENDER TADQIQOTLARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI

**Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida gender tadqiqotlari.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, gender munosabatlari asosan ijtimoiy psixologik fanlar tomonidan keng o'rganilgan. Buning sababi jins kategoriyasi asosida shakllangan ijtimoiy guruhlar sotsiologiya hamda psixologiya fanlarining obyektini hisoblanadi. Bu fanlar tushunchalar apparatidagi "munosabatlar" kategoriyasi individual va guruh subyektlar o'rtasidagi turli munosabatlar fenomenologiyasini aks ettiradi.


Gender munosabatlar fenomeni va muammosi keng talqin qilingan. Mazkur munosabatlar muammolariga jins bo'yicha tengsizlik, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy, psixologik farqlar, turli ijtimoiy institutlar va tashkilotlarda erkaklar hamda ayollar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va holatlari kiradi. XXI asrda o'tkazilgan tadqiqotlarda gender munosabatlarini o'rganish tushunchalari, usullari va sohasi yanada aniqlashganini ko'rish mumkin. Ularning mazmuni "gender tengsizlik", "gender stratifikatsiya", "gender differentsiatsiya", "gender tizimi", "gender tartibi", "gender tuzilishi", "gender rejimi", "gender assimetriyasi"<sup>7</sup>, "gender munosabatlaridagi nomutanosiblik", "gender nomuvofiqlik va assimetriya", "gender deprivatsiya" kabi tushunchalar orqali ochib beriladi.

Tadqiqot obyektini sifatida gender munosabatlarini o'rganishdagi aksariyat ishlarda ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollari hamda maqomlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л. Н. Попковой, И. Н. Тартаковской. Самара: Самарский ун-т, 2003. С. 10—22.  
<sup>8</sup> Социология гендерных отношений: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. З. Х. Саралиевой. М.: РОССПЭН, 2004. 270 с.  
<sup>9</sup> Клецина И. С. Психология гендерных отношений: теория и практика. СПб.: Але-тейя, 2004. 408 с.



Gender munosabatlarini o'rganishda fan sohasining chegaralarini belgilash nazariy va empirik o'rganish uchun tahlil parametrlari hamda ko'rsatkichlari to'g'risidagi asosiy savolga javob olish imkonini beradi. Ular asosida genderning muhim xususiyatlari aniqlanadi hamda munosabatlari ochib beriladi. Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida tahlilning asosiy parametrlari sifatida bir qancha indikatorlarni (ko'rsatkichlarni) ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida gender masalalarini o'rganish ko'rsatkichlari

Gender munosabatlarining predmet sohasini tavsiflash "gender munosabatlari" fenomenini aniqlash, xususiyatlarini ko'rsatish imkonini berdi. Shunga ko'ra, gender munosabatlari deyilganda <sup>9</sup> birinchidan, erkak va ayol jinsiga mansub subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchidan, ular o'rtasidagi munosabatlarda mavqelarning tengsizligi tushuniladi va o'rganiladi. Bundan kelib chiqadiki, gender munosabatlarini tahlil qilishda tadqiqotchilar munosabatlarning mazmuniy qisminigina emas, shu bilan birga munosabatlar subyektlarining xususiyatlarini ham hisobga olishlari lozim bo'ladi. Gender munosabatlari ikki subyekt tufayli mavjud degan yondashuv aksariyat hollarda tadqiqotchilar tomonidan unutiladi. Shuning uchun gender masalalari ko'pincha hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini aniqlash deb talqin qilingan. Ammo ushbu munosabat subyektlari gender

<sup>9</sup> Воронина О. А. Глоссарий по гендерному образованию // Гендерные исследования : региональная антология гендерных исследований из восьми стран СНГ: Армении, Азербайджана, Грузии, Казахстана, Кыргызстана, Молдовы, Таджикистана и Узбекистана. М. : Вариант : ИСГП, 2006. С. 443—511.



## TURLI FANLAR (SOHALAR) DOIRASIDA GENDER TADQIQOTLARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI

**Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida gender tadqiqotlari.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, gender munosabatlari asosan ijtimoiy psixologik fanlar tomonidan keng o'rganilgan. Buning sababi jins kategoriyasi asosida shakllangan ijtimoiy guruhlar sotsiologiya hamda psixologiya fanlarining obyekti hisoblanadi. Bu fanlar tushunchalar apparatidagi "munosabatlar" kategoriyasi individual va guruhliy subyektlar o'rtasidagi turli munosabatlar fenomenologiyasini aks ettiradi.


Gender munosabatlar fenomeni va muammosi keng talqin qilingan. Mazkur munosabatlar muammolariga jins bo'yicha tengsizlik, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy, psixologik farqlar, turli ijtimoiy institutlar va tashkilotlarda erkaklar hamda ayollar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va holatlari kiradi. XXI asrda o'tkazilgan tadqiqotlarda gender munosabatlarini o'rganish tushunchalari, usullari va sohasi yanada aniqlashganini ko'rish mumkin. Ularning mazmuni "gender tengsizlik", "gender stratifikatsiya", "gender differentsiatsiya", "gender tizimi", "gender tartibi", "gender tuzilishi", "gender rejimi", "gender assimetriyasi"<sup>7</sup>, "gender munosabatlaridagi nomutanosiblik", "gender nomuvofiqlik va assimetriya", "gender deprivatsiya" kabi tushunchalar orqali ochib beriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida gender munosabatlarini o'rganishdagi aksariyat ishlarda ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollari hamda maqomlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л. Н. Попковой, И. Н. Тартаковской. Самара: Самарский ун-т, 2003. С. 10—22.  
<sup>8</sup> Клецина И. С. Психология гендерных отношений: теория и практика. СПб.: Але-тейя, 2004. 408 с.



Gender munosabatlarini o'rganishda fan sohasining chegaralarini belgilash nazariy va empirik o'rganish uchun tahlil parametrlari hamda ko'rsatkichlari to'g'risidagi asosiy savolga javob olish imkonini beradi. Ular asosida genderning muhim xususiyatlari aniqlanadi hamda munosabatlari ochib beriladi. Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida tahlilning asosiy parametrlari sifatida bir qancha indikatorlarni (ko'rsatkichlarni) ko'rish mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida gender masalalarini o'rganish ko'rsatkichlari**

Gender munosabatlarining predmet sohasini tavsiflash "gender munosabatlarini" fenomenini aniqlash, xususiyatlarini ko'rsatish imkonini berdi. Shunga ko'ra, gender munosabatlarini deyilganda <sup>9</sup> *birinchidan*, erkak va ayol jinsiga mansub subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, *ikkinchidan*, ular o'rtasidagi munosabatlarda mavqelarning tengsizligi tushuniladi va o'rganiladi. Bundan kelib chiqadiki, gender munosabatlarini tahlil qilishda tadqiqotchilar munosabatlarning mazmuniy qisminigina emas, shu bilan birga munosabatlar subyektlarining xususiyatlarini ham hisobga olishlari lozim bo'ladi. Gender munosabatlarini ikki subyekt tufayli mavjud degan yondashuv aksariyat hollarda tadqiqotchilar tomonidan unutiladi. Shuning uchun gender masalalari ko'pincha hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini aniqlash deb talqin qilingan. Ammo ushbu munosabat subyektlari gender

<sup>9</sup> Воронина О. А. Глоссарий по гендерному образованию // Гендерные исследования : региональная антология гендерных исследований из восьми стран СНГ: Армении, Азербайджана, Грузии, Казахстана, Кыргызстана, Молдовы, Таджикистана и Узбекистана. М. : Вариант : ИСГП, 2006. С. 443—511.



munosabatlarning ssenariysini o'zgartirishi yoki saqlashi mumkin bo'lgan hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi<sup>10</sup>.

Gender munosabatlarini tadqiq etish jinslararo munosabatlarning uslublari, modellari, ssenariylari, amaliyotlar bilan ifodalangan obyektiv va subyektiv tomonlarni hamda gender stereotiplar o'rganishni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq. Shunday qilib, gender munosabatlari jinslararo o'zaro ta'sirning haqiqiy amaliyoti va modellari gender vakillari ongida mavjud bo'lgan tasavvurlar, stereotiplar, ustavnokalar bilan qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Ushbu korrelyatsiyalar o'rganilayotgan munosabatlarni tavsiflash imkonini beradi. Bu esa ularning o'ziga xos jihatlarni aniqlash va rivojlanish tendensiyalari prognozini tuzishga ko'maklashadi. Shunday qilib, bir qator tadqiqotlarda gender munosabatlarining obyektiv va subyektiv tomonlari tadqiqotning kontseptual masalasiga kiritilgan. Tadqiqotchilar o'z ishlarini ularning munosabatlarini tahlil qilishga qaratishadi<sup>11</sup>.

Jinslararo munosabatlar o'rganiladigan barcha tadqiqotlarda ularning jamiyat va shaxsiy hayotning turli sohalarida turlicha namoyon bo'lishi hamda amal qilishi alohida ta'kidlanadi. Shaxsning qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy roli va mavqei bilan belgilanadigan mikro hamda makro darajada qayta ishlab chiqariladigan gender munosabatlari jamiyatning iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy sohalarida namoyon bo'ladi<sup>12</sup>.

Barcha fanlardagi kabi sotsiologiya va psixologiyada gender munosabatlari makro, mezo va mikro darajada o'rganiladi. Shu bilan birgalikda gender munosabatlari ijtimoiy voqelikning ijtimoiy, guruhlararo, shaxslararo munosabatlarning keng doirasiga qurilgan; shuningdek, bu munosabatlar shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati doirasida ham o'rganiladi.

Makrosotsial darajada erkaklar yoki ayollar guruhi jamiyat (davlat) tizimida tahlil qilinadi. Mezodarajada (guruhlararo o'zaro munosabatlar) gender

<sup>10</sup> Ростова А. В. Методология изучения гендерных отношений // Вестник Самарского государственного университета. 2008. № 63. С. 221—226.

<sup>11</sup> Гафизова Н. Б., Королева Т. В. Гендерные стереотипы в современной провинциальной семье: (на примере Ивановской области) // Женщина в российском обществе. 2001. № 3/4. С. 50—53. Клецина И. С., Прохорова О. Л. Гендерная компетентность: психологическое содержание и специфика проявления в межличностных отношениях // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. 2010. Т. 5, № 2: Психология. С. 38—50. 36.

<sup>12</sup> Смирнова А. В. Представления школьников и студентов о гендерных ролях мужчин и женщин в современном российском обществе // Женщина в российском обществе. 2005. № 1/2. С. 26—33.



munosabatlar erkaklar guruhi va ayollar guruhi doirasida amalga oshiriladi. Shaxslararo munosabatlar sohasining mikro darajasida tahlil obyekti "shaxs – shaxs" tizimida namoyon bo'ladi. Bunda o'zaro munosabatlarga kirishadigan shaxslar qarama-qarshi jins vakillari bo'lishadi. Shaxs darajasida tahlil obyekti ma'lum bir jinsning subyekti sifatida shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati hisoblanadi.

Gender munosabatlarni tahlil qilish jarayonida ularni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Gender munosabatlarini o'rgangan ko'pchilik tadqiqotchilar o'z ishlarida fanda ustuvor mavqega ega bo'lgan ijtimoiy-konstruktivistik yoki strukturaviy-konstruktivistik paradigmalarga murojaat qilishgan. Ijtimoiy konstruktivistik paradigma genderning ijtimoiy qurilmasi nazariyasi bilan bevosita ifodalanadi. Ushbu nazariya doirasida gender nafaqat jamiyatning asosiy institutlari, balki shaxslarning o'zlari tomonidan shakllantirilgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning uyushgan modeli sifatida tushuniladi. Genderning ijtimoiy qurilmasi nazariyasining asosiy tamoyili jinslar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy jihatdan loyihalashtirilgan degan fikrga qaratilgan. Strukturaviy-konstruktiv paradigmadan foydalanish jamiyatdagi gender tartibini shakllantiradigan tuzilmalar va amaliyotlarning o'zaro bog'liqligiga urg'u beriladi. Tadqiqot predmeti sifatida institutsional sharoitlar bilan chegaralangan va ularni o'zgartiradigan individual, shuningdek, guruh strategiyalari namoyon bo'ladi. Strukturaviy-konstruktiv yondashuv gender munosabatlarini agentlar hamda ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tahlil qilishga imkon beradi.

Gender munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi tadqiqotlarda asosan gender shartnomasi, kasbiy segregatsiya, oilada jinsga ko'ra rollarning differentsiatsiyasi, gender manipulyatsiyasi, gender shaxslararo nizolar va shu singari hodisalarni tasvirlashga murojaat qilishadi.


**Gender tadqiqotlari asosiy e'tiborni ijtimoiy hodisalarining mazmunini gender jihati asosida tavsiflash, ularning paydo bo'lish sabablarini batafsilroq tahlil qilish, mazkur munosabatlarni optimallashtirish yo'llari va vositalarini tizimlashtirishga qaratadi.**

Gender munosabatlari mohiyati o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy sharoitlar, shuningdek, psixologik omillar ta'sirida shakllangan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligidadir. Shuning uchun gender munosabatlari



ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida voqelikning o'zgaruvchan hodisasi sifatida tadqiq qilinadi. Mazkur munosabatlarni o'zgartirishning strategik maqsadlari jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyatini o'zgartirish, iyerarxik munosabatlarni sheriklik munosabatlari bilan almashtirish, jamiyat ongiga teng huquqli gender g'oyalari bilan munosabatlarni joriy etishdan iborat.

Metodologik jihatdan gender munosabatlari ko'p holatlarda sotsiologiya va psixologiya fanlariga tegishli bo'lgan miqdoriy hamda sifatiiy usullar orqali amalga oshiriladi. Gender munosabatlari muammosini o'rganishda sifatiiy va miqdoriy usullardan foydalanish uni turli kesimlar asosida tahlil qilish, sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ko'p tomonlama obyektiv tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi (3-rasm).



3-rasm. Ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida o'rganiladigan gender muammolari va masalalari

### Iqtisodiyotda gender munosabatlarni tahlil qilish amaliyoti.

Eng umumiy ma'noda gender iqtisodiyotining predmetini iqtisodiy faoliyat sohasidagi gender tafovutlarning namoyon bo'lish manbalari, ko'lami va mexanizmlari tashkil etadi<sup>13</sup>. Gender iqtisodiyoti sohasi iqtisodiy muammolarning uch turini qamrab oladi. Bular (4-rasm):

<sup>13</sup> Мезенцева Е. Гендерная проблематика в экономической теории, [www.owl.ru/win/books/articles/mezenzeva.htm](http://www.owl.ru/win/books/articles/mezenzeva.htm)



<b>nazariy tahlil</b>	erkaklar va ayollar iqtisodiy faoliyat natijalarining omillari, manbalarini ko'rib chiquvchi nazariy modellar	<b>amaliy tadqiqotlar</b>	erkaklar va ayollar maqomlaridagi o'xshashlik hamda farqlarni o'rganuvchi empirik tadqiqotlar
		<b>taklif va tavsiyalar</b>	har bir jinsga turlicha ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy siyosatning tahlili

4-rasm. Gender iqtisodiyoti asosiy masalalari

Demak, gender iqtisodiyotining asosini erkaklar va ayollar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni tahlil qilish hamda gender tengsizlik sabablarini aniqlash, gender omillarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini va aksincha, iqtisodiy jarayon va tendensiyalarning gender tenglikka ta'sirini o'rganish tashkil etadi. Hozirgi kunda bu ilmiy yo'nalish ba'zan qarama-qarshi bo'lgan turli xil nazariy ta'limot va amaliy yondashuvlarning keng doirasini ifodalaydi.

Gender iqtisodiyoti bozor iqtisodiyoti nazariyasiga asoslanadi. Unga ko'ra, bozor xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi aloqaning raqobat shakli va iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, yuritishning asosiy shakli sifatida ijtimoiy optimallikni ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga, bozorning asosiy ustunligi uning umumiy muvozanatga erishish, iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash qobiliyatidir<sup>14</sup>. Shunday qilib, u keng ma'noda iqtisodiyotning samaradorligini ta'minlaydi.

Yaqin paytgacha faoliyatning gender jihatlarini o'rganish zarurligini asoslash ijtimoiy va gumanitar fanlar – sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik kabi fanlar tomonidan amalga oshirilgan. Bu holat jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va uning ijtimoiy yaxlitligini ta'minlovchi jiddiy gender nomutanosibliklar mavjudligi bilan izohlanadi. Ammo gender tengsizligi muammolarini iqtisodiy munosabatlardan tashqarida tadqiq etib bo'lmaydi. Bugungi kunda gender omillarining nafaqat ishchi kuchi

<sup>14</sup> Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy resurslarni joylashtirish, agar zarur imkoniyat va resurslardan birortasi ham o'tkazib yuborilmasa va savdo (birja) operatsiyalaridan barcha mumkin bo'lgan foyda olinsa, samarali deb e'tirof etiladi.



va bandlik tarkibiga, balki iqtisodiy faoliyatni belgilab turgan muhit – uning ijtimoiy, institutsional, demografik va hatto ruhiy sharoitlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Shu munosabat bilan gender masalalarini zamonaviy iqtisodiy nazariyaning asosiy yo'nalishiga kiritish nazarda tutilmoqda. Bu gender nuqtai nazardan iqtisodiy nazariyaning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, erkaklar va ayollarning iqtisodiyotdagi mavqeiga nisbatan yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni yuritish zarurligini asoslaydi.

Gender iqtisodiyotini tahlil qilishning uslubiy yondashuvlari asosini bozor mexanizmining nomukammalligi – bozor muvaffaqiyatsizliklarining mavjudligi haqidagi tezis tashkil etadi.

### **Gender iqtisodiyoti doirasida o'rganiladigan muammolar**

- ✓ Aholining daromadlari va iste'molidagi tabaqalanishining gender jihatlari;
- ✓ Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va kafolatlarining ta'minlanishi;
- ✓ Oilaning kattaligi, tarkibi, farovonligi;
- ✓ Ish faoliyatida xotin-qizlarning kamsitilishi (ayollar maoshining kamligi, ishga joylashish va ishdan bo'shatishda gender jihatlari);
- ✓ Erkak va ayolni teng mehnati uchun birdek mukofotlagan taqdirda ham, ayolning farzand tarbiyasi va uy-ro'zg'or yumushlaridagi oilaviy yuki mavjudligi natijasida ishchi kuchi sifatining yomonlashuvi;
- ✓ Shartnoma sohasida (mehnat, kredit yoki sug'urta shartnomasi, biznes shartnomasi) gender farqlari, salbiy tanlov va ma'naviy xavf muammosi;
- ✓ Ishbilarmon ayollar va ularning muammolari.

Iqtisodiyotning gender tahlili nafaqat jamiyatning iqtisodiy resurslaridan teng huquqiy foydalanish sohasida ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikka erishish, shu bilan birga teng imkoniyatlar masalalarida ham erishilgan yutuqlarni va natijalar tengligini baholaydi. Natijalardagi tengsizliklar huquq va imkoniyatlar sohasidagi gender tengsizliklar bilan qanchalik bog'liqligi o'rganiladi (5-rasm).



### **Huquqlar tengligi**

- Qonunchilikning gender ekspertizasi;
- Manfaatdor tomonlar tahlili;
- Sotsiologik so'rovlar;
- Fokus guruhlar bilan ishlash;
- Ekspert baholash (ko'rilgan chora-tadbirlarning erkaklar va ayollar uchun ijtimoiy oqibatlarini baholash);
- Qiyosiy (xalqaro modellar, xalqaro tajriba, milliy yutuqlar bilan taqqoslash).



### **Imkoniyatlar tengligi**

- Sotsiologik so'rovlar;
- Fokus guruhlar bilan ishlash;
- Statistik tahlil qilish;
- Ekspert baholash (ko'rilgan chora-tadbirlarning erkaklar va ayollar uchun ijtimoiy oqibatlarini baholash);
- Qiyosiy (xalqaro modellar, xalqaro tajriba, milliy yutuqlar bilan taqqoslash).



### **Natijalar tengligi**


- Tarkibiy (xususiyatlarga ko'ra guruhlash, guruhlar nisbatlarini tahlil qilish va har bir guruh xususiyatlarini o'rganish);
- Statistik (mavjud statistik ma'lumotlardan foydalanish, qayta ishlash va tahlil qilish);
- Qiyosiy (xalqaro modellar, xalqaro tajriba, milliy yutuqlar bilan taqqoslash);
- Ekonometrik (o'zaro aloqalar tahlili).



### **5-rasm. Iqtisodiyotdagi gender tahlilning asosiy usullari**

**Sog'liqni saqlash sohasida gender baholash.** Sog'liqni saqlashning zamonaviy rasmiy talqinida ikkita asosiy yondashuv ajralib turadi: biotibbiy va ijtimoiy yondashuvlar. Inson salomatligiga an'anaviy biotibbiyot yondashuvi va uni himoya qilish vositalarini izlash inson tanasining biologik, anatomik xususiyatlari hamda unda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarning namoyon

## Gender tadqiqotlarni tashkil etishning xususiyatlari va usullari



bo'lishi sifatida salomatlik yoki kasallikni tushunishga asoslanadi. Biomedikal yondashuv sog'liq muammolarini farmakologik vositalar (dorilar, vaksinalar) bilan hal qilish va ularni ishlab chiqarishga ko'proq e'tibor qaratishni taklif etadi. Hozirgacha xalqaro tashkilotlar hamda ko'plab mamlakatlarda rasmiy sog'liqni saqlash tizimining asosini biotibbiyot model tashkil etmoqda.

Bugungi kunda salomatlik shunchaki kasallikning yo'qligi emas, balki insonning to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida ta'riflanadi<sup>15</sup>. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ushbu ta'rifi salomatlik asosida yotadigan bir qator tashqi muhim omillar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqalar) mavjudligini bildiradi. Biotibbiyot modeldan farqli o'laroq *ijtimoiy model* sog'liqni saqlashga bo'lgan yondashuvni kengaytiradi va sog'liqni ishlab chiqarish, boshqaruvga ta'sir qiladigan mafkura, qadriyatlar, e'tiqodlarga ega tizim sifatida talqin etadi. Shuningdek, u xizmatlardan kim foydalanishi mumkinligi, sog'liqni saqlash sohasida bo'ladigan tadbirlar natijasida kim foyda ko'rishini yoki zarar ko'rishini ochib beradi. Ijtimoiy model shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy muhitidan kelib chiqqan holda umumiy sihat-salomatlikni yaxshilash uchun kengroq siyosat aralashuvini taklif qiladi.

Ammo ta'kidlab o'tish lozimki, bu ikki model sog'liqning barcha mumkin bo'lgan talqinlarini tasvirlamaydi, balki u haqida eng keng tarqalgan rasmiy qarashlarni aks ettiradi. "Gender jamiyatda mavjud bo'lgan hokimiyat, obro', nufuz va maqom tengsizligi, uning butun dunyodagi erkaklar va ayollarning sog'lig'iga tengsiz ta'sirining namoyon bo'lishidir. Sog'liqni saqlashda gender tengsizliklari markazida tengsizliklarni davom ettirishga sabab bo'ladigan ijtimoiy me'yorlar va tuzilmalar turadi"<sup>16</sup>.

Erkaklar va ayollarning nafaqat biologik, balki ijtimoiy jihatdan ham farqlanishini tan olish sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim sanaladi. Bu farqlar erkaklar va ayollar turli xil ijtimoiy rollar, tajribalar va ehtiyojlarga ega bo'lishini bildiradi. Shuning uchun bir guruh uchun samarali bo'lgan ish uslublari boshqalar uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Aynan shu yerda salomatlik determinantlari yoki salomatlikning asosiy omillari tushunchasini ko'rib chiqish kerak. Quyida salomatlikning asosiy determinantlari ko'rsatilgan (6-rasm):

<sup>15</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifidan

<sup>16</sup> Sog'liqni saqlashda ijtimoiy determinantlar bo'yicha komissiya, JSST. [www.who.int/social\\_](http://www.who.int/social_)

## Gender tadqiqotlarni tashkil etishning xususiyatlari va usullari



- ta'lim
- daromadlar
- gender
- bandlik va mehnat sharoitlari
- tibbiy va ijtimoiy muhit
- biologik va irsiy omil
- turmush tarzi va sog'lik
- bolaning sog'lom rivojlanishi
- sog'liqni saqlash xizmatlari
- madaniyat

6-rasm. Sog'liqning asosiy determinantlari<sup>17</sup>

Ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, ko'pgina determinantlar erkaklar va ayollar uchun bir xil bo'lishi mumkin. Gender ham salomatlikning muhim omillaridan biri sifatida determinantlar tarkibiga kiradi.

Sog'liqni saqlash sohasida gender munosabatlarni baholashning maqsadlari mavjud (7-rasm).



### Sog'liqni saqlash sohasida gender baholashning maqsadlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi

Sog'liqni saqlash sohasida gender yondashuvni joriy etish holatini aniqlash

Sog'liqni saqlashga gender yondashuvni joriy etish imkoniyatlarini aniqlash

Gender yondashuvni yanada va samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

7-rasm. Sog'liqni saqlash sohasida gender munosabatlarni baholashning maqsadlari

<sup>17</sup> Бу руйхат Канада соғлиқни сақлаш тизими томонидан қабул қилинган детерминантлар. Манба: Including Gender In Health Planning, A Guide For Regional Health Authorities. Lissa Donner, May 2003 Prairie Women's Health Centre of Excellence

## Gender tadqiqotlarni tashkil etishning xususiyatlari va usullari



Gender omili salomatlikning boshqa omillari bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu holatda erkaklar va ayollarning o'z sog'lig'iga munosabati, kasallik bilan bog'liq vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlari, kasalliklarni qanday qabul qilishlari, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi bilan qanday munosabatda bo'lishlari aniqlanadi (8-rasm).



8-rasm. Gender omilini baholash manbalari

Bundan tashqari, sog'liqni saqlash sohasida gender ko'rsatkichlari qanday mezonlarga javob berishi kerakligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qo'yilgan savollarga mos keladigan baholash yo'nalishlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- gender va salomatlik sohasidagi xalqaro va milliy normalarni ko'rib chiqish;
- gender bo'yicha manfaatdor tomonlar faoliyatini tahlil qilish (qiziqish va ta'sir darajasi bo'yicha xaritalash);
- gender baholashni joriy etish holati va salohiyatini baholash.

## Gender tadqiqotlarni tashkil etishning xususiyatlari va usullari

Gender tengligiga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish monitoringi mexanizmining bir qismi sifatida gender ko'rsatkichlarining imkoniyatlarini baholash uchun ma'lumotlarni yig'ish ketma-ketligi mavjud. Uni quyidagicha tasavvur qilish mumkin (9-rasm).

Hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish

Ekspertlar bilan so'rov o'tkazish

Statistik ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish


9-rasm. Ma'lumotlarni yig'ish ketma-ketligi



## GENDER TADQIQOTLARNI O'TKAZISH BOSQICHLARI

Gender bilan bog'liq o'rganilayotgan jarayon yoki hodisa to'g'risida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun yagona maqsad bilan bog'liq metodologik, metodik va tashkiliy-texnik amallar ketma-ketligi **Gender tadqiqoti** deyiladi.

Umuman olganda har qanday tadqiqot to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi. Gender muammolarini o'rganishda ham aynan shu to'rtta bosqichni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ushbu bosqichlarni chizma shaklida quyidagicha tasavvur qilish mumkin (10-rasm):



10-rasm. Gender tadqiqot bosqichlari

**I. Tadqiqotni metodologik va metodik jihatdan tayyorlash** deganda tadqiqotning dasturini ishlab chiqish nazarda tutiladi. Tadqiqot

dasturi o'z ichiga tadqiqotning metodologik va metodik (tashkiliy-texnik) asoslarini qamrab oladi.

*Metodologik o'rganish* nazariy jihatdan muammoning bosh va asosiy elementlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlashni nazarda tutadi. Muammoli vaziyatni o'rganish davomida tadqiqot mavzusiga aniqlik kiritiladi. Tadqiqotning obyektini va predmeti ko'rsatiladi. Tadqiqotning predmeti tadqiqot doirasida obyektning o'rganilishi kerak bo'lgan doirasini chizib beradi. Shuning asosida tizimli tahlil orqali tadqiqotning gipotezasi ishlab chiqiladi. Gipoteza o'z navbatida tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Maqsad tadqiqotchi tomonidan o'rganish yakunida olinishi ko'zlangan tugal natijani ifodalaydi. Vazifalar esa maqsaddan kelib chiqqan holda o'rganilishi va tahlil qilinishi kerak bo'lgan muammolarni qamrab oladi.

Tadqiqotchi o'rganayotgan muammoni aniqroq tasavvur qilishi uchun ishlatadigan tushunchalarining mazmuni ochib beriladi. Bu tushunchalar interpretatsiyasi va operatsionalizatsiyasi deb ataladi. Tadqiqotning mazkur bosqichida ishchi gipotezalar shakllantiriladi. Ishchi gipotezalar tahminiyl xarakterga ega bo'lib, tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topishi yoki rad etilishi lozim.


*Dasturning metodik bo'limida* tadqiqot davomida o'tkazilishi rejalashtirilgan metodika va texnikalar ko'rsatiladi. Gender tadqiqot texnikasi tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlatiladigan ko'nikma, malakalar to'plamini qamrab oladi. Tadqiqot instrumentariysi – turli hujjatlar shaklida taqdim etilgan, tegishli operatsiyalar va protseduralarda mujassamlangan tadqiqotlarni olib borish uchun metodik va texnik uslublar to'plami.

Tadqiqot obyektini belgilashda "bosh to'plam" va "tanlanma to'plam" kabi tushunchalardan foydalaniladi. Bosh to'plam deyilganida o'rganilayotgan obyektning barcha vakillari tushuniladi. Masalan, O'zbekistondagi barcha oilalar soni bosh to'plamni tashkil etadi. Maxsus usullar yordamida bosh to'plamdan tanlab olingan oila vakillari tanlanma to'plamni tashkil etadi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi uchta funksiyani bajaradi<sup>18</sup>:

- 1) metodologik – ilmiy muammoni aniqlash, tadqiqot maqsad va vazifalarini shakllantirish;

<sup>18</sup> Волкова Л.В. Методика проведения социологического исследования. Методическое пособие. –М.: Издательский центр РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина, 2014. 9с.



Tadqiqot dasturi (30-40%)

Dasturning metodologik qismi

Dasturning metodik qismi

11-rasm. Tadqiqot dasturini tuzish, tadqiqotni o'tkazish bosqichlari va unga ketadigan vaqt taqsimoti

- 2) metodik – umumiy mantiqiy tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ma'lumot to'plash va tahlil qilish usullaridan foydalanish, tadqiqot tartibini ishlab chiqish;
- 3) tashkiliy – tadqiqot guruhi a'zolari o'rtasida mehnat taqsimotining aniq tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot dasturini tuzish, tadqiqotni o'tkazish bosqichlari va unga ketadigan vaqt taqsimotini (foizlarda) quyidagicha tasavvur qilish mumkin (11-rasm):

Odatda dastur tuzish ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Dastlab tadqiqotning maqsadi, vazifalarini ko'rsatish, ehtimoliy gipotezani tuzish bilan dasturning maketi tuziladi, bundan keyin reja asosida dala tadqiqoti bosqichi keladi va, nihoyat, adabiyot manbalari va dala kuzatishlari asosida to'laqonli dastur tuziladi.

Birlamchi ma'lumotlarni to'plash bosqichida so'rov, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish, sotsial eksperiment usullarining mos turlaridan foydalaniladi.



## GENDER MUAMMOLARINI O'RGANISH: SIFATIY VA MIQDORIY USULLAR

Umuman olganda gender tadqiqotlarning barcha ma'lumotlar yig'ish usullari ikkita: sifatiy va miqdoriy usullar guruhga ajratiladi. Tanlangan mavzu, obyekt va tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu usul tanlanadi. Sifatiy tadqiqotlar – odatda muammoning ochilish jarayonida, miqdoriy tadqiqotlar esa bevosita tadqiqotni o'tkazish jarayonida tasdiqlash va isbotlash maqsadida keng qo'llaniladi. Miqdoriy va sifatiy usullar tadqiqot davomida o'zaro bir-birini to'ldiradi. Bu usullarni birgalikda olib borish orqali muammo bo'yicha to'liq ma'lumotni olish imkoni paydo bo'ladi.

**Miqdoriy usullar** deganda ilgari surilgan gipotezalar o'rganishlar davomida olingan ma'lumotlarni matematik tahlil qilish yordamida tekshiriladigan usullar tushuniladi. Gotlib A.S. "raqamlar faqat keng nazariy umumlashtirishlar kontekstida ma'noga ega"<sup>19</sup> degan o'rinli fikrni bildirgan. Boshqacha qilib aytganda, miqdoriy usullar tegishli talqinni oladigan matematik ma'lumotlarga asoslanadi. Gender munosabatlarini o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan miqdoriy usullarga *kontent tahlil qilish va so'rov usullari* kiradi. Kontent tahlil doirasida gender munosabatlari o'rganilganida matnli xabarlar, illyustratsiyalar, reklama, filmlarda erkaklar va ayollarni tasvirlashda gender stereotiplarini aniqlash maqsadi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, kontent tahlil an'anaviy va noan'anaviy sifatlar yoki rollarni miqdoriy o'zaro bog'lash orqali ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan erkak va ayol haqidagi g'oyalarning o'zgarish darajasini aniqlash imkonini beradi.

*So'rov usullari* ko'pincha hodisaning tarqalishini, uning turli ijtimoiy-demografik guruhlarda namoyon bo'lishini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, bu usullardan qancha erkak va ayolning gender munosabatlariga nisbatan an'anaviy qarashlari borligini aniqlash mumkin.

<sup>19</sup> Gotlib, A.S. Введение в социологическое исследование: качественный и количественный подходы. Методология. Исследовательские практики: учеб. пособие / А.С. Готлиб. - Самара: Изд-во «Самарский университет», 2002. - С.175.

Bundan tashqari, so'rov usullaridan foydalangan holda gender munosabatlari muammosi bo'yicha odamlarning fikrlari (masalan, erkaklar va ayollarning holati to'g'risida ularning fikrini bilish), atrofdagi voqelikni baholash haqida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, respondentlarning hodisalardan xabardorlik va tushunish darajasini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, respondentlarning gender tengligi fenomenini tushunish, talqin qilish imkoniyatlarini baholash mumkin.

Miqdoriy usullar insonlarning xulk-atvori tavsifini obyektiv ravishda o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlash miqdoriy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Miqdoriy usullar doirasida ehtimollar nazariyasi va matematik statistikadan keng foydalaniladi. Bu usullar vositasida olingan xulosalar yig'indisi, asosiy yig'indiga aynanlashtiriladi. Misol uchun yillar kesimida o'zbek oilalarining rivojlanish tendensiyasini aniqlash maqsadida miqdoriy ko'rsatkichlar asosida monitoringli tadqiqotlar olib boriladi. Nikoh qurish tendensiyasi, bunda yosh ko'satkichlarining o'sishi yoki pasayishi; oilalarda farzandlar soni ko'payishi yoki kamayishini tadqiq etish; nuklear oilalarning jamiyatda kamayish yoki ko'payish holatini aniqlash; erkaklar va ayollarning o'rtacha daromadi ko'rsatkichlarini tadqiq qilish kabi ko'plab masalalarda miqdoriy usullar qo'l keladi.

Shunday qilib, gender munosabatlarini o'rganishda miqdoriy usullar erkak va ayolning roli, jinslar o'zaro ta'sirining tabiati haqidagi g'oyalarning tarqalish darajasi kabi omillarni tavsiflash; ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning erkaklar va ayollarning holatiga ta'sirini aniqlash; mehnatning tengligi va haq to'lanishi o'rtasidagi farqni aniqlash; hokimiyat tuzilmalarida gender vakilligi nisbatini tadqiq qilish imkoniyatlarini beradi.

Gender munosabatlari, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlarning ularga ta'siridan tashqari, subyektlarning o'zlari tomonidan ham tashkil etiladi, amalga oshiriladi. Shuning uchun gender munosabatlarini o'rganishda miqdoriy usullardan foydalanish har doim ham kifoya qilmaydi.

**Sifatiy usullar** gender munosabatlarining yangi shakllanayotgan ko'rinishlarining ichki mexanizmlarini ochishga yordam beradi. Sifatiy usullar tasviriy xarakterga ega bo'lib, tasvirlovchi ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi. Sifatiy usullarga chuqurlashtirilgan intervyu, biografik usul yoki ekspert so'rovi usullarini misol qilish mumkin. Sifatiy usullar xulq-atvorni turli xil belgilar bilan qat'iy belgilanishi nuqtai nazaridan emas, balki uning shaxsning o'z



xususiyatlari va dunyoqarashi asosida xulq-atvor strategiyasini tanlashi nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Gender munosabatlarini o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan sifatiy usul – bu *hikoya suhbat* bo'lib, uning maqsadi individual harakatlarning subyektiv ma'nolarini tahlil qilishdir. Ma'lumot beruvchining hayoti haqidagi hikoyani tinglab, suhbatdosh inson o'z harakatlarini qanday qurishi, uning xatti-harakatlariga qanday subyektiv omillar ta'sir qilishi haqida ma'lumot oladi. Bundan tashqari sifatiy usullar nafaqat shaxsning xulq-atvor strategiyasini tanlash sabablarini aniqlashga, balki turli xil g'oyalarning ommaviy ongga kirib borish darajasini aniqlashga, shuningdek, jarayonlar yoki hodisalarning turli omillarga bog'liqligini baholashga yordam beradi.

Gender munosabatlarini o'rganishga kelsak, sifatiy tadqiqot usullari subyektlarning ijtimoiy voqelikning makro darajasida sodir bo'layotgan jarayonlarga rozilik yoki kelishmovchilik darajasini aniqlashga va shu asosda gender munosabatlari sohasidaga qarama-qarshi tendensiyalar mavjudligining sabablarini aniqlashga imkon beradi.

**Gender munosabatlarini o'rganishda miqdoriy va sifatiy usullardan bir vaqtning o'zida foydalanish ko'proq natija beradi hamda o'zini oqlaydi.** Masalan, erkaklar va ayollar o'rtasida gender stereotiplarining tarqalishini tahlil qilish orqali (ya'ni sifatiy usullardan foydalangan holda) uning turli ko'rsatkichlarga – ma'lumotga, oilaviy ahvolga, yoshga (ya'ni miqdoriy usullardan foydalangan holda) bog'liqligini aniqlash mumkin. Gender munosabatlari muammosini o'rganishda sotsiologiyaning sifatiy va miqdoriy usullaridan foydalanish muammosini turli sohalarda ko'rib chiqishga imkon beradi va shu bilan sodir bo'layotgan jarayonlar haqida har tomonlama, obyektiv tasavvurga ega bo'linadi<sup>20</sup>.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, gender munosabatlari biologik va madaniy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab o'zgaruvchi hodisadir. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda gender munosabatlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilishga imkon beradigan usullarning butun majmuasidan foydalanish muhimligi shubhasizdir.

<sup>20</sup> Ростова А.Б. Методология изучения гендерных отношений. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologiya-izucheniya-gendernyh-otnosheniy#:~:text=>



## TADQIQOTLARDA GENDER STATISTIKASI KO'RSATKICHLARIDAN FOYDALANISH

Gender tahlili gender rollari, faoliyat turlari, ehtiyojlar, imkoniyatlar, huquqlar va imtiyozlaridagi tafovutlar muayyan vaziyatlarda ayollar, erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarga qanday ta'sir qilishini tanqidiy ko'rib chiqishdir. Gender tahlili gender statistikasi tomonidan taqdim etiladigan miqdoriy va sifatiy usullar hamda ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi mumkin<sup>21</sup>.

Gender tahlili gender siyosatining har bir bosqichida, tadbirlarni rejalashtirishdan tortib, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni monitoring qilishgacha, gender tengligiga erishish strategiyasi va konsepsiyalarini ishlab chiqishdan tortib, byudjet masalalarini aniqlash, genderni yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish va gender auditini o'tkazishgacha zarur bo'lgan choradir. Gender tahlilini o'tkazish pirovardida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni (gender diagnostikasi deb ataladigan) baholash va gender siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratiladi.

Gender tahlili bir nechta manbalardan olingan aniq va ishonchli ma'lumotlar bo'lishini talab etadi. Gender tahlilining asosiy vositasi, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqligini qiyosiy tahlil qilish va ijtimoiy so'rovlardan tashqari, vaziyatga to'g'ri baho berish hamda gender nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etadigan gender statistikasi hisoblanadi.

Gender statistikasi mavhum yoki alohida soha emas, aksincha, statistikaning barcha sohalarini bilan bog'liq yo'nalishni ifodalaydi. Uni ishlab chiqishda mavjud muammolar kontekstida va mamlakatdagi gender masalalarini chiqishda mavjud muammolar kontekstida va mamlakatdagi gender masalalarini bilan bog'liq maqsadlarni hisobga olgan holda statistika uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ko'proq

<sup>21</sup> Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. ST/ESA/STAT/SER.F/111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016. – С.262.



gender masalalarini hal qilish uchun jins bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni tahlil qilishdan tashqari gender siyosatni ishlab chiqishga qaratiladi. Bu esa gender statistikasing asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ayollar va erkaklar maqomidagi farqlar va tengsizliklarni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar Gender statistikasi sifatida ta'riflanadi.**

Gender statistikasi quyidagi xususiyatlar majmuyi sifatida belgilanadi:

a) ma'lumotlar to'plangach, asosiy va umumiy tasnif sifatida jins bo'yicha ajratiladi;

b) ma'lumotlar gender masalalarini aks ettiradi;

v) ma'lumotlar ayollar va erkaklarning xilma-xilligini aks ettiruvchi, hayotining barcha jabhalarini tavsiflovchi tushunchalar va ta'riflarga asoslanadi;

d) ma'lumotlarni yig'ish usullari gender tarfkashligiga olib kelishi mumkin bo'lgan stereotiplar hamda ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga oladi<sup>22</sup>.

**Gender statistikasi har bir milliy statistika sohasining ajralmas qismi bo'lib, ayollar va erkaklarning real hayotini aks ettiruvchi, gender siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadigan statistik ma'lumotlarni aniqlash, ishlab chiqish va tarqatishga xizmat qiladi.**

Samarali gender statistika tizimini yaratish uchun puxta ishlab chiqilgan va aniq belgilangan gender indikatorlari (ko'rsatkichlari) zarur bo'ladi. Bunda miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlar muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Indikatorlarning mavjudligi taraqqiyotni kuzatish va baholash, shunga muvofiq, hisobotni ta'minlash uchun zaruriy shartdir. Indikatorlar vaziyatni yanada aniqroq tahlil qilishga imkon bergani uchun ahamiyatlidir<sup>23</sup>.

Tegishli ko'rsatkichlardan foydalanish hisobotni takomillashtirish, uni yanada shaffof va samarali qilish, shu bilan birga shartnoma organlari, inson huquqlari monitoringi mexanizmlarining tavsiyalari va xulosalarini yaxshiroq amalga oshirish imkonini beradi<sup>24</sup>. Shuningdek, indikatorlar yordamida

<sup>22</sup> Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. ST/ESA/STAT/SER.F/111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016. – С.2.

<sup>23</sup> Показатели в области прав человека. Руководство по измерению и осуществлению. ООН, УВКПЧ, 2012. – С.106.

<sup>24</sup> Показатели в области прав человека. Руководство по измерению и осуществлению. УВКПЧ, 2012. – С.106.



inson huquqlarining eng ko'p buzilishini aniqlash mumkin<sup>25</sup>. Indikatorlar nafaqat monitoring vositasi, balki ma'lumotlarga asoslangan rejalashtirish va qaror qabul qilishdir. Indikatorlar sifat o'lchovlari yordamida baholash samaradorligini oshiradigan vositalardir. Gender statistikasi tadqiqot va siyosatni ishlab chiqish uchun hujjatlashtirilgan asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, samarali gender siyosatini amalga oshirish uchun uning barcha bosqichlarida gender tahlilini ta'minlaydigan **kompleks gender yondashuvi** talab qilinadi. Gender tahlili aniq belgilangan gender ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradigan ishonchli gender statistikasi asoslanishi muhim ahamiyatga ega (12-rasm).

### SAMARALI GENDER SIYOSATI



12-rasm. Samarali gender siyosatining tarkibiy elementlari

**Gender statistikasi quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:**

- jamiyatdagi ayollar va erkaklarning haqiqiy holatini tushunishga ko'maklashish;
- gender tahlili va tadqiqotlarini rivojlantirish;
- gender tengligi, ayollar va qizlarning barcha asosiy huquqlardan to'liq va teng foydalanish yo'lidagi taraqqiyotni monitoring qilish;
- inson kapitali va mehnat resurslariga investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan siyosat hamda dasturlarni ishlab chiqish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

<sup>25</sup> Показатели в области прав человека. Руководство по измерению и осуществлению. УВКПЧ, 2012. – С.106.



- qashshoqlikni qisqartirish va rivojlanish siyosatida gender tamoyillarini qo'llab-quvvatlash;
- ayollarga nisbatan zo'ravonlikni kamaytirish siyosatini ishlab chiqish va monitoring qilish.<sup>26</sup>

**Gender statistikasi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni o'rganish va ushbu rivojlanishning gender o'lchovini tushunish maqsadida o'tkaziladigan tadqiqotlarda gender statistikasi talab qilinadi.

**Gender statistikasidan davlat dasturlari va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.** Mazkur statistik ma'lumotlar davlat dasturlari samaradorligining monitoringini olib borish va baholash uchun ishlatiladi. Bu boradagi kamchiliklarni aniqlash hamda yangi savollarni shakllantirishga ko'maklashadi.


**Gender statistikasi xalqaro miqyosda aloqa va monitoring vositasiga aylanib bormoqda.** Global gender indekslarini baholashda qo'llaniladigan gender statistikasi mamlakatlarning global va mintaqaviy darajada gender tengligi maqsadlariga erishishini monitoring qiladi.

**Gender statistikasi ma'lumotlarni umumlashtirish, shuningdek, milliy miqyosda harakatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.** Bu ma'lumotlar davlatning inson huquqlari organlariga taqdim etgan milliy hisobotlarida o'z aksini topadi (13-rasm).

**Gender statistikasi gender siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni tahlil qilish va ishlab chiqish uchun eng muhim vosita hisoblanadi.** Gender tahlilining sifati va natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati gender statistikasining obyektivligi va ishonchliligiga bog'liq. O'z navbatida, davlat gender siyosatining samaradorligi bo'yicha tavsiyalarning to'g'riligi va muvofiqligi kompleks gender yondashuvini amalga oshirishga bog'liq. **Bunda gender statistikasi tadqiqot va siyosatni ishlab chiqish uchun hujjatlashtirilgan asos bo'lib xizmat qiladi.**<sup>27</sup>

<sup>26</sup> Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. ST/ESA/STAT/SER.F/111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016. – С.3.

<sup>27</sup> Гендерная статистика. Практическое руководство. Пособие подготовлено в рамках Программы USAID по правовой реформе в Узбекистане. Ташкент 2023, С



## GENDER STATISTIKASI

1.

### Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish vositasi

gender siyosatda qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslanganlikni ta'minlaydi

2.

### Davlat dasturlari va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish vositasi

rivojlanishning milliy gender strategiyasini belgilab berishda asosiy manba bo'ladi

3.

### Xalqaro miqyosda aloqa va monitoring vositasi

jahon gender indekslari manbasi

4.

### Gender statistikasi ma'lumotlarni umumlashtirish va milliy miqyosda harakatlarni muvofiqlashtirish vositasi

davlatning mamlakatda gender vaziyat to'g'risida xalqaro organlariga hisobotlari manbasi sifatida va ko'rinishida namoyon bo'ladi

### 13-rasm. Gender statistikasidan foydalanish yo'nalishlari (sohalari)

Ma'lumotlarni to'plash, turlarga ajratish jinsga qarab amalga oshiriladi. Ma'lum bir jamiyatdagi erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda jins bo'yicha ajratilgan ma'lumotlar doim muhim ahamiyatga ega. Jins ko'rsatkichi asosida shakllantirilgan ma'lumotlar gender masalalarini tahlil qilish imkonini beradi. Lekin to'liq gender tahlili uchun bu ma'lumotlarning o'zi yetarli emas. Masalan, zo'ravonlik oila a'zosi yoki jabrlanuvchiga noma'lum shaxs tomonidan sodir etilganligini aniqlash maqsadida oiladagi zo'ravonlik qurbonlari to'g'risidagi ma'lumotlar nafaqat jins ko'rsatkichi bo'yicha, balki zo'ravonlik sodir etgan shaxslar, ularning jabrlanuvchi bilan munosabatlari bo'yicha ham tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Gender yondashuvi nafaqat ayollarga, balki ijtimoiy-demografik guruh sifatida erkaklarga ham qaratilgan bo'ladi. Chunki siyosat ayollar va erkaklarga turlicha ta'sir qiladi. Bundan tashqari, erkaklarning ahvolini o'rganish ayollarning ahvolini tushunish uchun juda muhim. Biroq, ba'zi hollarda ayollar hamda erkaklar alohida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayrim



ko'rsatkichlar, masalan, onalar o'limi faqat ayollarga va muayyan kasalliklar bo'yicha ba'zi ma'lumotlar faqat erkaklarga tegishli bo'lishi mumkin.

Aholining erkaklar va ayollarga bo'linishi aholining boshqa ijtimoiy toifalarga bo'linishi bilan to'ldiriladi. Gender statistikasini ishlab chiqishda barcha ijtimoiy toifalarning o'zaro ta'sir qilish xususiyatini hisobga olish lozim. Ayollar va erkaklar bir xil ijtimoiy-demografik guruhlar emas. Ular o'rtasida yosh, ta'lim darajasi va boshqa ko'rsatkichlar darajasida sezilarli farqlar mavjud. Gender tahlili uchun ijtimoiy toifalarga sinf, qashshoqlik va ijtimoiy izolyatsiya (chetlatish), shuningdek, etnik (milliy) kelib chiqishi, e'tiqodi, nogironligi, migratsiya va fuqarolik holati muhim hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, gender farqlar subyektlarning yashash hududi, ya'ni shahar yoki qishloq aholisining maqomi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuning uchun statistik ma'lumotlarni yig'ish va ularni taqdim etishda nafaqat jins, shu bilan birga boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha toifalarga ajratgan holda ma'lumotlarni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, gender statistikasi nafaqat oilaviy munosabatlarga, balki ko'plab sohalarga tegishli. Gender masalalarini aniqlash va tasniflash uchun turli usullar qo'llaniladi. Yevropa Ittifoqining gender tengligi bo'yicha yo'l xaritasi<sup>28</sup> va BMT ning Pekin Harakatlar Platformasi<sup>29</sup> asosan ikkita yondashuvni ifodalaydi. Buni ushbu ikki hujjatning mohiyatini o'rganish orqali anglash mumkin.

Yevropa Ittifoqi Yo'l Xaritasida 2006-2010-yillarda gender tenglikka erishish maqsadida oltita ustuvor yo'nalish belgilab olingan:

- ☑ *birinchi yo'nalish*, iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun erkak va ayollar uchun teng sharoitlar yaratish;
- ☑ *ikkinchi yo'nalish*, shaxsiy hayot bilan kasbiy faoliyat o'rtasida muvozanatga erishish;
- ☑ *uchinchi yo'nalish*, qaror qabul qilishda erkaklar va ayollarning teng ishtirokini ta'minlash;
- ☑ *to'rtinchi yo'nalish* gender asosidagi zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish;
- ☑ *beshtinchi yo'nalish*, gender stereotiplarini yo'q qilish;
- ☑ *oltinchi yo'nalish*, Yevropa Ittifoqidan tashqarida gender tengligini targ'ib qilish.

<sup>28</sup> [http://ec.europa.eu/employment\\_social/news/2006/mar/com06092\\_roadmap\\_en.pdf](http://ec.europa.eu/employment_social/news/2006/mar/com06092_roadmap_en.pdf)  
<sup>29</sup> <http://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/platform/plat1.htm>

"Yo'l xaritasi"da belgilangan siyosat yo'nalishlarida gender tengligiga erishish monitoringi bo'yicha Yevropa Komissiyasi uchun ustuvor vazifalar va harakatlar, shuningdek, indikatorlar belgilab berildi. Hujjatda qayd etilishicha, statistikaning ayrim yo'nalishlarini, masalan, salomatlik, jinoyatchilik, jinoyat qurbonlari to'g'risidagi gender ma'lumotlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

1995-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Pekin Harakatlar Platformasi Strategik harakatlarni talab qiladigan 12 ta asosiy muammoli sohani belgilab berdi. Ushbu sohalar uchun siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni baholash, monitoring qilish muayyan statistik ma'lumotlarni talab etadi. Quyida ko'rsatilgan muhim muammoli sohalar Pekin Platformasi asosida tuzilgan va gender muammolarni qisqacha tavsiflovchi xulosalarni o'z ichiga qamrab oladi.

**1. Qashshoqlik:** "Ayollar o'rtasida qashshoqlikning davom etishi va kuchayishi": ayollar o'rtasidagi qashshoqlik ularning ahvolini yetarli darajada hisobga olmaydigan makroiqtisodiy siyosat, ijtimoiy ta'minot tizimlari va kredit siyosati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

**2. Ta'lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi sohasi:** "Ta'lim va kasbiy o'qitishda noteng imkoniyatlar hamda resurslardan foydalanishdagi tengsizlik. Qizlar va ayollar, o'g'il bolalar va erkaklarga nisbatan ta'lim va kasbiy ta'lim olishda chegaralangan imkoniyatlar shakllanishining oldini olish va qarshi kurashish.

**3. Sog'liqni saqlash:** "Sog'liqni saqlash va unga tegishli sohalarda teng bo'lmagan imkoniyatlar hamda tegishli xizmatlardan noteng foydalanishlari Ayollar erkaklarga qaraganda tibbiy xizmatdan kamroq foydalanishlari mumkin. Ba'zi kasalliklar faqat bitta jinsga xos bo'ladi. Masalan, ko'krak saratoni yoki prostata bezi saratoni va h.k.

**4. Zo'ravonlik:** "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik": Gender tengsizligiga asosidagi zo'ravonlik ko'p holatlarda erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan amalga oshiriladi. Mazkur zo'ravonlik turlari oiladagi zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ta'qib qilish, mehnat faoliyati va joyida jinsiy zo'ravonlik, ayollar savdosi, majburiy nikoh tarzida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik gender tengsizligining sababi va natijasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.



**5. Qurolli mojarolar:** "Qurolli va boshqa mojarolarning ayollarga, xususan, chet el istilosi ostida yashovchilarga ta'siri". Ayollar odatda nizolarni hal qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishda kamroq ishtirok etadilar; Ayollar uchun mojaro va mojarodan keyingi vaziyatlarda jinsiy zo'ravonlik xavfi juda yuqori.

**6. Iqtisodiyot:** "Iqtisodiy tuzilmalar va siyosatlar, ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakllari va resurslardan foydalanishdagi tengsizliklar". Iqtisodiy tahlil ayollar haq to'lanadigan ishlarga nisbatan haq to'lanmaydigan uy ishlarida ko'proq mashg'ul bo'lishlarini ko'rsatmoqda. Bu holat mazkur yo'nalishda faoliyat olib borilishi lozimligini asoslaydi.

**7. Hokimiyat va qarorlar qabul qilish:** "Hamma darajalarda hokimiyatni taqsimlash va qarorlar qabul qilishda erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi tengsizlik". Gender masalalari ayollarning parlamentda, vazirliklarda, politsiya, sud tizimidagi yuqori lavozimlarda mutanosib vakilligiga taalluqlidir.

**8. Ayollar mavqeini oshirishning institutsional mexanizmlari:** "Barcha darajalarda xotin-qizlarning mavqeini yaxshilashga imkon beradigan mexanizmlarning takomillashmaganligi (kamchiliklari)". Bu ayollarning mavqeini oshirishning milliy mexanizmlari, ularning imkoniyatlari va resurslari, jumladan, vazirliklar, qo'mitalar, komissiyalar va alohida dasturlar, shuningdek, rasmiy ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish, masalan, gender bo'yicha statistik ma'lumotlarga tegishli bo'lgan soha hisoblanadi.

**9. Ayollar huquqlari:** "Ayollarning inson huquqlariga yetarli darajada hurmat ko'rsatilmagan, ular yetarli darajada rag'batlantirilmagan va himoyalanganligi". Umumjahon Inson Huquqlari Deklaratsiyasi ayollar huquqlarini ham himoya qilsa-da, BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiyasi kabi ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus hujjatlar mavjud.

**10. Ommaviy axborot vositalari:** "Barcha kommunikatsiya tizimlarida, xususan, ommaviy axborot vositalarida ayollarning stereotiplarga asoslangan qiyofasini yaratish". OAV ning gender tahlili ayollarning ommaviy axborot vositalarida qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki darajasini aniqlash, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarning stereotiplar asosidagi qiyofasini yaratishga qaratilgan harakatlarni baholash sohasini o'z ichiga qamrab oladi.



**11. Atrof-muhit:** "Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik". Bu masalada gender jihatlar ayollarning atrof-muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirokini, shuningdek, atrof-muhit muammolarining erkaklar hamda ayollarga turlicha ta'siri, ularning oqibatlarini o'z ichiga oladi.

**12. Qizlar:** "Ayollarga nisbatan kamsitishlarni saqlanib qolganligi va xotin-qizlar huquqlarining buzilishi". Ba'zi mamlakatlarda qizlarning o'g'il bolalarga qaraganda ovqatlanish, sog'liqni saqlash xizmatlari va ta'lim olish sohalaridagi huquqlari cheklangan. Ular pedofiliya, bolalar fohishaligi, erta turmush qurish, tug'ilmagan bolaning jinsiga qarab prenatal tanlovga (jinsga qarab ajratilgan abortlar) duchor bo'ladilar.

Global va milliy miqyosda gender statistikasini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlarga qaramasdan, gender statistikasini to'g'ri tushunish va undan foydalanish uchun zarur bo'lgan omillar bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud.

*Birinchidan*, gender statistikasi jins bo'yicha ma'lumotlardan kattaroq hajmni ifodalaydi. Mazkur ma'lumotlar ba'zasi haqidagi munozaraning boshlang'ich nuqtasi ko'pincha bir-birini almashtiradigan ikkita tushuncha – jins va gender o'rtasidagi farq.

*Ikkinchidan*, gender statistikasini ayollar statistikasi bilan tenglashtirmaslik kerak. Hozirgi vaqtda "ayollar huquqlari" tushunchasi o'rniga "gender tengligi" tushunchasi tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ayollarning haqiqiy tengligi" tushunchasi tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ayollarning haqiqiy tengligi faqat erkaklarnikiga nisbatan qiyoslash orqali to'g'ri tasvirlash va ahvolini faqat erkaklarnikiga nisbatan qiyoslash orqali to'g'ri tasvirlash va tahlil qilish mumkin. Siyosat nuqtai nazaridan e'tiborni ayollardan gender masalalariga qaratish xotin-qizlar manfaatlarini umumiy rivojlanish siyosati va strategiyalaridan chetlashtiradi, ayollar va erkaklar rollari hamda majburiyatlariga, ularning o'zaro munosabatlariga e'tiborning kuchaytirilishi davlat siyosati va strategiyasining samaradorligini oshirishi mumkin<sup>30</sup>.

*Uchinchidan*, gender statistikasi nafaqat gender tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan strategiya va dasturlarda, shu bilan birgalikda, barcha siyosat va strategiyalarda ham hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega<sup>31</sup>. Aks holda,

<sup>30</sup> Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016. - С.3.

<sup>31</sup> Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016.-С.8.



kompleks gender yondashuvini ta'minlab bo'lmaydi. Gender statistikasi mavhum yoki alohida soha emas, aksincha, bu statistikaning barcha sohalarini bilan bog'liq yo'nalishdir<sup>32</sup>. Ayollar huquqlari va gender tengligi masalalarini rivojlanishning boshqa masalalar bilan birgalikda ko'rib chiqish lozim (14-rasm).

**Ayollar statistikasi**

(ayollar bo'yicha miqdoriy ma'lumotlar)

**Jins bo'yicha toifalangan ma'lumotlar to'plami**

(erkaklar va ayollar to'g'risidagi miqdoriy ma'lumotlar)

**Jamiyatda gender rollarni hisobga olgan holda tahlil qilish**

14-rasm. Gender tahlilda statistik ma'lumotlardan foydalanish

**Statistik usullar** deyilganda tadqiqotda ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish va taqqoslashda qo'llaniladigan amaliy matematik statistikaning usul va modellari yig'indisi ko'zda tutiladi. Ushbu usullarning aksariyati bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda qo'llaniladi. Ularning ayrimlaridan sotsiologik va gender tadqiqotlar davomida foydalaniladi.

Bu usullarning birinchi guruhiga tanlash usuli, tavsiflovchi statistik ma'lumotlar, munosabatlar va bog'liqliklar tahlili, statistik xulosalar nazariyasi, baholar va mezonlar, tajribalarni loyihalash kiradi.

Ikkinchi guruhga bir qancha ko'p o'zgaruvchan statistik usullar, turli masshtablash usullari, taksonomik protseduralar, korrelyatsiya, faktorli, sabab tahlillari, shuningdek, statistik modellarning katta guruhi taalluqli. Tadqiqotda statistik usullarning rivojlanishiga axborot texnologiyalarining rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda ma'lumotlarni statistik tahlil qilish turli kompyuter dasturiy ta'minotlari SPSS, Da system, Stata va boshqa dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Gender tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlash bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri tashkiliy, texnik, uslubiy, ba'zan esa nazariy muammolarni hal qilishni talab qiladi. Bu yerda ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichini tadqiqotning boshqa bosqichlari bilan bog'liqligini ta'kidlash lozim.

<sup>32</sup> Разработка гендерной статистики. Справочное руководство для обучения статистиков, подготовленное целевой группой ЕЭК ООН по гендерной статистике с участием различных экспертов. ООН, Женева, 2010. – С. 1.

Statistik tahlil davomida kerakli statistik qonuniyatlar va bog'liqliklar aniqlanadi. Bu bosqich olingan birlamchi ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar o'rtasida aniq chegara yo'qligiga qaramay, **qayta ishlash** odatiy, mexanik, texnik protsedura bo'lsa, **tahlil qilish** esa talqin qilish bilan bog'liq murakkabroq amaliyot hisoblanadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini statistik axborotni tahlil qilish va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash usullariga bo'lish mumkin (15-rasm).



15-rasm. Statistik tahlil usullari

Davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ish, unga ishlov berish, saqlash, tahlil qilish va e'lon qilishni amalga oshiradi (16-rasm).

**Davlat statistika organlari tomonidan gender ko'rsatkichlarini shakllantirish quyidagilarga asoslanadi**

- ✓ davlat statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat statistik kuzatuvlari
- ✓ davlat boshqaruvi organlarining ma'muriyatga oid ma'lumotlari
- ✓ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistik kuzatuvlar

16-rasm. Gender ko'rsatkichlarini shakllantirish asoslari

Statistik ko'rsatkichlarni tanlash ma'lumotlarning turiga va ularni o'lchash usullariga bog'liq. Yuqori darajali shkalalar quyi darajadagi shkalalarda qo'llaniladigan barcha ko'rsatkichlardan foydalanishi mumkin, ammo yuqori





Hujjatlar maqomiga ko'ra

Rasmiy hujjatlar

Rasmiy bo'lmagan hujjatlar

17-rasm. Maqomiga ko'ra hujjatlar turlari

Hujjatlar bajaradigan vazifasiga ko'ra, informatsion, regulyativ, kommunikativ, madaniy-ma'rifiy turlarga ajraladi. *Informatsion hujjatlar* axborotlarni yoritish va ulashish vazifasini bajarib, ularga gazeta, jurnal, internet nashrlari, OAV barcha mahsulotlari misol bo'ladi. *Regulyativ hujjatlar* jamiyatda insonlarning huquqi va burchlarini o'zida aks ettiruvchi hujjatlardir. Ularga barcha huquqiy normativ hujjatlar kiradi. Konstitutsiya, qonunlar, kodekslar, mehnat shartnomasi, nikoh shartnomasi, korxonalar o'rtasidagi shartnomalar shular qatorida. *Kommunikativ hujjatlar* o'z nomi bilan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Ularga shaxsiy maktublar, yozishmalar, smslar kiradi. *Madaniy-ma'rifiy hujjatlar* adabiyot, san'at, tarix, din kabi sohalarda yaratilgan asarlarni o'z ichiga qamrab oladi. Gender tadqiqotlarining maqsadidan kelib chiqqan holda mos keluvchi hujjat turlari tanlab olinadi (18-rasm).

Hujjatlar o'z vazifasiga ko'ra

Informatsion  
(OAV nashrlari kabi)

Regulyativ  
(qonunlar, kodekslar va xk)

Kommunikativ  
(xatlar, sms)

madaniy-  
ma'rifiy  
(kitoblar, teledasturlar)

18-rasm. Hujjatlarning vazifasiga ko'ra turlari

Gender tadqiqotlari doirasida hujjatlarni tahlil qilishning ikki xil usuli ishlatiladi. Bular hujjatlarni sifatli (an'anaviy) va miqdoriy (kontent analiz) tahlil qilishdir. Hujjatli axborotlarni o'rganishdagi bu ikki yondashuv bir-birini to'ldirib, kamchiliklarini o'zaro qoplash, muammoga har taraflama nigoz tashlash imkonini beradi.



Hujjatlarni sifatli tahlil hujjatning mag'zi tadqiqotchi subyektiv fikri asosida ochib berilishiga asoslanadi. Miqdoriy tahlil, ya'ni kontent tahlil usuli esa asosan tahlil birliklarini topish, ularning miqdori asosida xulosa berishni nazarda tutadi. Mazkur usullarni amalga oshirishda o'ziga xos metodik va texnik amallar ketma-ketligi bajariladi (19-rasm).

Hujjatlarni tahlil qilish usullari

An'anaviy usul (sifatli)

1. Tashqi tahlil
2. Ichki tahlil

Kontent analiz (miqdoriy) usuli

1. Kalit so'zlar bo'yicha tahlil
2. Ijobiy, salbiy belgilar bo'yicha tahlil
3. Tarkib elementlari bo'yicha tahlil
4. Mavzuga doir tahlil
5. Tarkibiy tahlil
6. Turli xil materiallarning nashrlar umumiy maqsadi bilan o'zaro bog'liqligining tahlili

19-rasm. Hujjatlarni tahlil qilish usullari.

Istalgan mavzu ma'lum so'zlar, so'z birikmalari, tushunchalar orqali u yoki bu shaklda hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Kontent tahlil usuli hujjatlardagi tushunchalarni aniqlab, ularning miqdori topilgach, mazmun jihatdan bog'liqligini tushuntirishga harakat qiladi. Bunda garchi so'zlar miqdoriga asosiy e'tibor qaratilsada, tahlil baribir tushunchaning mazmunidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Matn doimo muammoli vaziyat nuqtai nazaridan o'rganiladi. Matnda tahlil birliklari sifatida so'zlar va so'z birikmalari, xat boshilari va maqola mavzulari namoyon bo'lishi mumkin. *Tahlil birliklari* – bu tahlil uchun ahamiyatli bo'lgan, hujjat matnining mazmunini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar.



## GENDER TADQIQOTLARDA SO'ROV USULINING QO'LLANILISHI

So'rov usuli o'z nomi bilan savol berish va unga javob olish orqali ma'lumotlarni yig'ishni nazarda tutadi. Gender bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda so'rov usuli keng qo'llaniladi. So'rov *og'zaki* yoki *yozma* shaklda, bitta kishidan yoki guruhdan o'tkazilishi mumkin.

**So'rov bu kishilarning gender, gender tenglik va munosabatlar to'g'risida ularning subyektiv dunyosini, ya'ni fikri, yondashuvi, nuqtai-nazari, munosabatini o'rganishga qaratilgan usuldir.**

**So'rov ikki xil: anketa (so'rov varaqasi) va intervyu (suhbat) shaklda o'tkaziladi.** Har ikki holda ham so'rovda so'rov varaqasidan foydalaniladi.



ANKETALI



SO'ROV SHAKLLARI

20-rasm. So'rov usuli shakllari



INTERVYU

**Intervyu** og'zaki so'rov turi bo'lib, bunda tadqiqotchi respondentga bevosita suhbat shaklida savollar beradi. Intervyuda esa so'rov varaqasi respondent tomonidan to'ldirilmaydi. Bu holatda intervyuer (suhbat olib boruvchi) savollar bilan respondentlarga yuzlanadi va javoblarni so'rov varaqasida o'zi qayd etadi. Ayrim holatlarda intervyuer respondentlarga anketadagi savolning javoblarini ko'rsatishi mumkin. Bunday holatda u javoblar kartochkasidan foydalanadi.



Intervyuga qo'yidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Suhbat uchun to'g'ri joyni tanlash va muloqot uchun qulay muhit yaratish, intervyuni o'tkazishda hech qanday to'siqlar bo'lmasligi kerak.

2. Suhbat boshlanishidan oldin tadqiqotchi tomonidan intervyuning maqsadi, vazifalari va so'rovnomaning qisqacha mazmuni tanishtiriladi, respondentning anonimligi kafolatlanishi aytiladi.

3. Tadqiqotchining javob beruvchiga nisbatan betaraf yondashuvi, uning javoblariga ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi.

4. Ma'lumotlarni to'g'ri qayd etilishini ta'minlash. Bu so'zma-so'z yozish, qisqacha qayd etish, xotiradan yozib olish, diktofonga yozish kabi usullarda amalga oshirilishi mumkin. Oila a'zolaridan intervyu olib borish davomida bolalarning, ota-onalarning javoblarini yozish tadqiqotchi va uning yordamchisi tomonidan yoki diktofon orqali amalga oshirilishi mumkin.

Intervyu so'rovining shartli ravishda **uch asosiy turi** farqlanadi (21-rasm).

## INTERVYU TURLARI



Erkin intervyu

Standartlashgan intervyu

Yarim standartlashgan intervyu

21-rasm. Intervyu turlari

**Erkin intervyu (standartlashtirilmagan)**, ya'ni suhbat ma'lum bir reja asosida olib boriladi. Bunda tadqiqotchi mavzu va reja doirasida istalgan miqdor hamda shaklda savollar beradi. **Standartlashtirilgan intervyu**da esa savollar qat'iy belgilangan bo'ladi. Tadqiqotchi oldindan tuzilgan savollarning barchasini o'zgartirishlarsiz respondentga berishga majbur bo'ladi. Yarim standartlashtirilgan intervyu davomida oldindan tuzilgan savollar bilan birgalikda qo'shimcha savollar berish imkoniyati bor.

Gender va gender munosabatlar xususiyatlarini inobatga olgan holda yuqoridagi ikki shaklni umumlashtirgan holda **yarim standartlashtirilgan intervyu usulini** ham qo'llash mumkin. Bunda oldindan shakllantirilgan intervyu savolnomasida savollar keltirilgan bo'ladi, shu bilan birgalikda intervyuer suhbat davomida mavzuni aniqlashtirish maqsadida qo'shimcha



savollarni berishi ham mumkin bo'ladi. Shunday yondashuv respondent javoblariga aniqlik kiritish imkonini beradi.

**Anketa so'rovi** tadqiqot o'tkazilayotgan kishilarga, ya'ni respondentlarga so'rov varaqasi tarqatiladi. Bu yerda intervyuer (so'rov o'tkazuvchi) faqat anketalarni to'ldirish qoidalarini tushuntirish, ularni tarqatish va yig'ib olish bilan shug'ullanadi. U respondentning savollarga javob berish jarayoniga umuman aralashmaydi. Respondent javobini o'z tushunchasi doirasidan kelib chiqib, mustaqil shakllantiradi va o'zi anketada qayd etadi. Anketa so'rovi auditoriyada ma'lum miqdordagi kishilardan o'tkazilsa, *guruhiy anketa so'rovi* deb ataladi. Mahalla faollari, talabalar guruhidan shunday so'rov o'tkazish mumkin. Odatda anketa orqali so'rov guruhiy shaklda faoliyat olib boradigan kishilar orasida o'tkaziladi.

### **Anketa tuzish qoidalari**

*Anketa* – bu imloviy va uslubiy me'yorlarga amal qilingan holda yaratilgan matn. U respondent uchun tushunarli tilda bayon qilinishi lozim. Anketaning sifati va ishonchliligi respondentning savollarni qay darajada tushunib javob berganligi aniqlab beradi.

Anketa 15-20 daqiqadan, ko'pi 30-40 daqiqagacha bo'lgan vaqt orali- g'ida respondent tomonidan to'ldirilishi kerak. Shunga mos ravishda anketada o'rtacha 40 tadan 60 tagacha bo'lgan miqdorda savollar shakllantiriladi. Ayrim tadqiqotlarda savollar miqdori 40 tadan ham kam bo'lishi mumkin.

Anketani tuzish va savollarni joylashtirishning o'ziga xos qoidalari mavjud. U odatda *kirish, asosiy qism, demografik savollardan* iborat bo'ladi. Kirish qismi respondentga yo'llangan bo'lib, unda anketaning maqsadi, to'ldirish qoidalari hamda anonim bo'lishi borasida tushuncha berib o'tiladi.

Anketaning asosiy qismi mavzuga doir savollardan tashkil topadi. Ushbu savollar o'rganilayotgan mavzuning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bir necha blok'larga ajratilgan bo'lishi mumkin. Misol uchun, "Oilalarda gender tenglik muammolari" mavzusi doirasida tadqiqot olib borilayotgan bo'lsa, savollar iqtisodiy, maishiy, ahloqiy, diniy kabi turkumlarga ajratilishi mumkin.

Anketadagi savollar turkumlarga ajratilgan holda respondentga taqdim qilinsa, ularga javob berish ancha osonlashadi. Keyinchalik ma'lumotlarni miqdoriy tahlil qilish ham yengil kechadi. Savollar mantiqan ketma-ket tartibda joylashtirilib, tushunarli javob variantlari va o'z javob variantini yozish uchun yetarlicha joy bilan ta'minlanishi ahamiyatlidir.



Demografik qismida javob beruvchilarning yoshi, millati, ma'lumoti, ish staji kabi nominal parametrlar so'raladi.

**Anketada uchraydigan savollar.** Anketada turli xil savollar qo'yiladi. Savollar tadqiqotda qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Qanday turdagi savol qo'yish tadqiqotchining kasbiy malakasiga bog'liq bo'ladi. Quyida anketada uchraydigan ayrim savollar ko'rib chiqiladi.

**1. Yopiq savollar** javob variantlari qat'iy ko'rsatilgan va respondentdan mana shu javoblardan biri yoki bir nechtasini tanlash zarurati qo'yilgan savoldir.

Masalan: **"Jinsingiz?"**

- 1) Ayol
- 2) Erkak

**2. Ochiq savollar** deganda anketada savolning javob variantlari ko'rsatilmagan va javobni yozish respondentga havola etilgan savollarga aytiladi.

Masalan: **Gender tenglik deganda Siz nimani tushunasiz? (marhamat yozing)** \_\_\_\_\_

**3. Yarim ochiq yoki yarim yapiq savollar**da ham javob variantlari ko'rsatilgan, ham respondentga o'z fikrini bayon etishga imkon berilgan bo'ladi.

Masalan: **"Sizningcha, oiladagi gender tengsizlik asosiy sabablari nima?"**

1. Urf-odatlar
2. Jamiyatdagi qonunlar
3. Diniy me'yorlar
4. Ayolning erkak qo'lga qarab qolishi
5. Tabiatan erkakning kuchli, ayolning nozik jins bo'lishi
6. Milliy madaniyat va an'analar
7. Turmush tarzi
8. Boshqa sabab (marhamat yozing) \_\_\_\_\_



**5. Filtr savol** ma'lum toifadagi respondentlarni tanlash hamda respondentlarning savollarga to'g'ri javob berayotganligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bu savolning belgisi "№ -savolga o'ting" degan jumla bilan ifodalanadi.

Masalan: "Oila qurganmisiz?"

1. Ha
2. Yo'q № 12- savolga o'ting

**Oila qurganingizga necha yil bo'ldi?** (marhamat yozing) \_\_\_\_\_

**6. Nazorat (kontrol) savollar** respondentning savollarga aniq va to'g'ri javob berayotganligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Masalan: "Yoshingiz nechada?" (marhamat yozing) \_\_\_\_\_

"Nechanchi yilda tug'ilgansiz?" (marhamat yozing) \_\_\_\_\_

**7. Jadvalli savollar** bir turkumga kiradigan holatlarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash, savollarni qayta takrorlamaslik va anketaning hajmni kengayib ketmasligi uchun qo'yiladi.

Masalan: "Mamlakatimizda gender tengsizlik holatlari quyidagi sohalarida qay darajada uchraydi?" (har bir qatorda 2 ta javob belgilang)

Sohalar	Keskin	O'rtacha	Uchramaydi	Javob berishim qiyin
Tibbiyot	1	2	3	4
Ta'lim	1	2	3	4
Sanoat	1	2	3	4
Boshqaruv	1	2	3	4
Xizmat ko'rsatish	1	2	3	4
Sport	1	2	3	4
Harbiy	1	2	3	4



**8. Intervalli savollar** odatda miqdor bilan o'lchanadigan ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi va bunda savolning javob variantlari muayyan son oralig'ida qo'yiladi. Bunda interval oralig'i hamma qator uchun bir xil bo'lishi lozim.

Masalan: "Yoshingiz nechada?"

- 1) 16-20 yosh
- 2) 21-30 yosh
- 3) 31-40 yosh
- 4) 41-50 yosh
- 5) 51 va undan yuqori

### Anketa savollarini shakllantirish qoidalari.

Anketa savollariga qo'yiladigan asosiy talablarni umumiy tarzda quyidagi bandlarda keltirib o'tishga harakat qilindi. Ularga amal qilgan holda tuzilgan anketalar, albatta, ishonchli va obektiv ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi.

**1. Anketaning birinchi savoli respondentning anketaga javob berish xohishini belgilab beradi.** Shuning uchun birinchi savol murakkab va uzun bo'lmasligi, aksincha, sodda ko'rinishda bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda u tadqiqotning maqsadini o'zida ifodalashi lozim. Respondent savolni tezda tushunib, unga qiynalmay javob bera olishi uchun birinchi savol yopiq savol ko'rinishida bo'lgani ma'qul.

**2. Savollar aniq shakllantirilishi kerak.** Ko'p ma'noli savollar respondentni chalg'itadi va javob berishida xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Respondent aniq va tez javob bera olishi uchun bitta savol doirasida ikkilantiruvchi fikr so'ralmasligi kerak.

**3. Anketa savollari tushunarli jummalardan iborat bo'lishi kerak.** Mutaxassislikka doir so'zlar, qiyin atamalarni imkon darajasida kamroq qo'llagan ma'qul. Chunki respondentlarning ma'lumotlilik darajasi bir-biridan farqlanadi. Savolning mohiyatini chuqur anglamagan inson unga javob bera olmaydi. Natijada savol ochiq qolishi yoki tavakkaliga belgilanishlik holatlari ortadi. Bu esa tadqiqotning axborot samaradorligini pasaytiradi.

**4. Jadvalli savollar anketa so'rovlarida qo'llanmagani ma'qul.** Jadvalli savollar respondent uchun tushunarsiz bo'lishi, javob berishida va



anketani to'ldirishida qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Jadval savollar odatda intervyu davomida samarali qo'llaniladi.

**5. Savolda ma'lum bir javobga undovchi fikrlar bo'lmasligi lozim.**

Tadqiqotchining asosiy maqsadi respondentning fikrini o'rganishdan iborat. Shunday ekan tuzilgan savollar respondentning fikriga ta'sir o'tkazmasligi lozim. Aks holda bu xatoliklarga olib keladi.

**6. Berilayotgan savol respondentni qiynab qo'ymasligi, turli hisob-kitob va ma'lumotlarni eslashga majbur qilmasligi kerak.**

Qiyin savollar respondentlarning so'rovda ishtirok etish xohishini so'ngdiradi. Javoblarni tavakkal belgilashiga yoki umuman tashlab ketishiga olib keladi. Shuning uchun ortiqcha hisob-kitoblarga undaydigan savollarni yengil ko'rinishga keltirish kerak.

**7. Ba'zan respondent turli sabablarga ko'ra savolga javob berishga qiynaladi yoki javob berishdan bosh tortadi. Bunday holatlarda unga savolga javob bermaslik imkonini qoldirish lozim.**

Buning uchun javob variantlari orasida "javob berishga qiynalaman" (JBQ) yoki "javob berishdan bosh tortaman" (JBBT) kabi variantlarni kiritish kerak bo'ladi. Natijada respondent savolni tashlab ketmaydi, tadqiqotchi esa respondent ushbu savolga javob berishdan bosh tortgani yoki qiynalganini aniq bilib oladi.

**8. Javoblarni shakllantirish davomida muqobil (qo'shimcha) variant yozish uchun imkon yaratilishi lozim.** Savollarga javoblarni shakllantirish davomida ba'zan savol barcha javob variantlarini qamrab olgandek bo'ladi. Doimo respondentga muqobil variant yozish imkonini berish kerak. Bunday holatda savolni yarim yopiq yoki ochiq shaklida qo'yish tavsiya etiladi.

**9. Ba'zan ayrim savollar respondentlarning barchasiga tegishli bo'lmasligi mumkin. Bu holatda filtr savollardan foydalanish kerak.** Filtr savollar respondentlarning fikrini saralash hamda vaqtini behuda sarflamasliklari uchun qo'llaniladi.

**10. Ba'zan respondent so'rovdan bosh tortmasligi uchun bilvosita savollardan foydalaniladi.** Bunda savollar to'g'ridan-to'g'ri respondentga tegishli bo'lmaydi, ma'lum bir hodisaga nisbatan respondentning fikri so'raladi.



**11. Savollarning javoblari, albatta, raqamlangan<sup>33</sup> va vertikal ketma-ketlikda keltirilgan bo'lishi kerak.** Shunda respondent javoblarni belgilashda qiynalmaydi va ma'lumotlar olingach, ularni qayta ishlash jarayoni ham osonlashadi.

Tadqiqot tugallangandan keyin anketaning to'g'riligini tekshirish boshlanadi. Agar ular noto'g'ri to'ldirilgan yoki 30 foizi to'ldirilmagan bo'lsa, bunday anketalar nuqsonli sanaladi va qayta ishlash bosqichiga olinmaydi. Anketalar soni kam bo'lsa, ularni qo'lda qayta ishlash mumkin. Qolganlari kompyuterda qayta ishlangani ma'qul.

<sup>33</sup> Savollarga berilgan javoblarning ketma-ket raqamlanishi kodlashtirish deyiladi. Ochiq va aralash savollarning javob variantlari so'rovnoma yig'ib olingach kodlashtiriladi. Yopiq savollarning javoblari esa so'rovnoma tuzilgan paytda raqamlangan bo'ladi. Javoblarning shu tarzda raqamlanishi kodlashtirishning eng sodda va optimal usuli sanaladi. Kodlashtirish ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va qayta ishlash jarayonini yengillashtiradi.




## GENDER MUNOSABATLARNI TAHLIL QILISHDA FOKUS GURUH USULI

Fokus guruh usuli ko'plab sohalarda fikrlarni o'rganish maqsadida ishlatiladi. Bu usul dastlab amerikalik sotsiologlar T.Parsons va P.Kendall tomonidan qo'llanilgan. Fokus-guruh – ma'lum qoidalarga muvofiq olib boriladigan guruh muhokamasi. Mazkur atama inglizcha **“focus group discussion”** so'zidan olingan bo'lib, **“biror bir mavzu yoki masalani ma'lum guruh doirasida batafsil muhokama qilish”** degan ma'noni anglatadi<sup>34</sup>.

Fokus guruh usulining asosiy maqsadi – aholining turli guruhlari yoki toifalarining real va potensial xatti-harakatining motivatsiyasini tushunish hamda muayyan yangilikning samaradorligini o'rganish davomida kishilarning reaksiyasini aniqlash, yangi mahsulot yoki xizmatni sinovdan o'tkazishdir. Bundan tashqari, bu usul jamiyatdagi muayyan hodisa va jarayonlarga (masalan, aholining gender tenglik, oiladagi ijtimoiy status va rollar taqsimoti, ayollarning diniy liboslariga) munosabatiga doir gipotezlarni pilotaj tekshirish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish instrumentariyalarini metodik ishlab chiqish uchun ham ishlatiladi.

Fokus guruh usuli **muayyan mavzuga yo'naltirilgan intervyu** nomi bilan ham yuritiladi. Fokus guruh ishtirokchilari *guruhiy munozara* jarayonida tadqiqot davomida taqdim etilgan biror faoliyatga yoki ushbu faoliyat natijasi bo'lgan mahsulotga nisbatan o'z munosabatini aks ettiradi. Fokus guruh munozara shaklidagi guruhiy intervyudir. Bu usul sotsiologik va gender tadqiqotlarda qo'llaniladigan boshqa so'rov usullariga ayrim jihatlari bilan o'xshaydi.

<sup>34</sup> Krenger R.A. Focus groups: A practical guide for applied research. London: Sage, 1988. P. 94.



### Fokus guruh – bu:

- kishilar imkon qadar tabiiy ravishda o'zaro munosabatda bo'ladigan kichik guruh;
- respondentlarning yashirin istaklari, motivlari va og'zaki bo'lmagan reaksiyalarini tushunish uchun yaxshi vosita;
- tushunarli ma'lumotlarni olishni osonlashtiradigan tadqiqot jarayonini bevosita kuzatish qobiliyati.

Fokus guruh usuliga bir qancha xususiyatlar xos. Ular orqali usuldan foydalanish va tashkil etish bo'yicha tamoyillarni bilib olish mumkin (22-rasm).



22-rasm. Fokus guruh metodining muhim xususiyatlari

**Guruhiy format.** Guruh ishtirokchilari soni chegaralangan bo'ladi. Ishtirokchilar odatda kichik guruhni (odatda 8-12 nafar kishi) tashkil etishadi. Bu esa turli fikr va mulohazalarni yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi.

**Fokus guruh ishtirokchilari.** Fokus-guruh ishtirokchilari tadqiqot maqsadiga muvofiq ma'lum ijtimoiy guruh – muayyan faoliyat sohasi mutaxassisleri, ma'lum bir hududiy birlik, jins-yosh toifalari vakllari va boshqalar tanlanadi.

**Muhokama mavzusi.** Bunda jamiyatdagi muayyan muammo, masalan, gender tenglik masalasi fokus guruh a'zolari orasida ko'tariladi va shu mavzu bo'yicha suhbat olib boriladi.

**Semantik erkinlik.** Suhbat jarayonida ishtirokchilar taklif etilgan mavzular bo'yicha o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega. Bu esa savollarga kutilmagan javoblarni olishni rag'batlantiradi.

**Sifatiy yondashuv.** Fokus guruhlar sifatiy tadqiqotlar toifasiga kiradi va ishtirokchilarning xatti-harakatlarining motivlari, psixologik jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

**O'zaro muloqotga asoslanish.** Ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot yangi fikrlarning paydo bo'lishi va ijtimoiy ta'sirni tushunishga olib keladi.

**Moderator mahorati.** Tajribali moderator muhokamani samarali davom ettirishda muhim rol o'ynaydi va munozarani tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda oqilona boshqaradi.

**Muloqotni audio va video tasmasiga qayd etish.** Ishtirokchilar bilan o'zaro muhokama shaklida o'tkaziladigan suhbat audio yoki video tasmlariga yozib olinadi. Bu tasmlar tadqiqot stenogrammasini shakllantirish va tahlil qilish uchun xizmat qiladi. Fokus guruh usulini amalga oshirish algoritmi bir nechta bosqichdan iborat bo'ladi. Ushbu bosqichlarning ta'minlanish darajasi bevosita tadqiqotning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Quyida usulni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan (3-jadval).

**Fokus guruh usulini amalga oshirish algoritmi**

3-jadval.

Fokus guruh usulini amalga oshirish algoritmi	
Bosqichlar	Bosqichlarning mohiyati
Dasturlarning yozilishi	Muammoning asoslanishi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, shuningdek o'rganilayotgan majmua, fokus guruhlar soni va hajmi, ma'lumotlarni yig'ish hamda qayta ishlash uskunalarini qamrab oladi.
Jamoani shakllantirish	Moderator va assistentlar tanlab olinadi. Bunda asosiy shart sifatida ularning malakasi, kirishimliligi, chaqqonligi, suhbatni olib borish ko'nikmasi, mavzudan boxabarlik darajasi namoyon bo'ladi.

Respondentlarni tanlash	Test, intervyu, oddiy tasodifiy tanlash yoki "qor uyumi" kabilar usullar asosida tanlanadi.	Guruh a'zosiga qo'yiladigan talablar: - bir yil (o'xshash mavzu bo'lsa 2-3 yil) davomida fokus guruhda ishtirok etmagan bo'lishi kerak; - respondentlar o'zaro va moderator bilan oldindan tanish bo'lmasligi kerak; - muhokama predmeti bilan professional ravishda tanish bo'lmasligi kerak; - fokus guruhlariga marketing, sosiologiya, jurnalistika soha vakillari va ularning oila a'zolari taklif qilinmaydi.
Gayd – rejani amalga oshirish	Salomlashish (qutlash), asosiy qoidalarni tushuntirish, ma'no jihatidan bloklarga bo'lingan savollarni aniq ifodalashdan iborat; gaydda tanaffuslarning vaqti va davomiyligi ko'rsatiladi. Gayd ishtirokchilarga tashakkur bildirish bilan yakunlanadi. Gayd ikki turda bo'ladi. Topik-gayd – faqat asosiy mavzular ko'rsatilgan bo'lib, moderator qo'shimcha savollar bilan suhbatni boshqarishi mumkin. Shuning uchun amaliyotda fokus guruh ko'proq topik-gayd asosida o'tkaziladi. Gayd-so'rovnomada esa barcha savollar, yo'riqnomalar aniq ko'rsatilgan bo'ladi.	
Transkriptni tayyorlash	Munozaraning video va audio yozuvlari stenogrammasi chop etilib, ma'nosi o'rganiladi.	
Hisobot yozish	Olingan ma'lumotlarning tahlili va izohi beriladi	

**Fokus guruh tadqiqotni amalga oshirish protsedurasi.**

Moderator fokus guruh muhokamasini doira shaklidagi stol atrofida olib boradi. U guruh a'zolarida o'ziga nisbatan ishonch uyg'ota olishi, muloqotni erkin nazorat qila olishi: uzoq vaqt davomida o'z e'tiborini muhokama qilinaotgan masalaga qaratishi; ssenariyni eslab qolishi va uni takrorlamasligi talab etiladi. Muhokamaning eng kam vaqt davom etishi 50-70 daqiqani, eng uzoq davom etishi esa 1,5 – 2 soatni tashkil etadi.

Biror bir turdagi, masalan, oiladagi er-xotinning o'zaro munosabati, ijtimoiy mavqe va rollarning taqsimoti, oilada tazyiq va zo'rvonlikka doir ijtimoiy reklamalarni namoyish etish holatlarda moderatorga **assistent** yordam beradi. U suhbatni audio yoki videotasmasiga yozib borilishini kuzatadi, namunalarni namoyish etadi yoki ularni guruh a'zolari o'rtasida



taqsimlaydi, guruh a'zolari tomonidan yozilgan yozuvlarni ular tadqiqot ssenariysida nazarda tutilgan bo'lsa yig'ib oladi.


Muhokama audio tasmasiga yozib olinadi va elektron stenogramma tayyorlash talab etiladi. Ayrim hollarda muhokama jarayoni video tasmasida qayd etiladi. Suhbat moderatorning fokus guruh a'zolari bilan muhokama mavzusi va uning qoidalari bilan tanishtirish orqali boshlanadi hamda oldindan tayyorlangan, mazmuni faqatgina moderatorga ma'lum bo'lgan ssenariy bo'yicha davom ettiriladi. Muhokama intensiv ravishda olib boriladi, majburiy tanaffus 5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Respondentlar va muhokamaning e'lon qilingan mavzusi (maqsadi) bilan tanishuvdan keyin 2-3 daqiqa o'tgach moderator guruh a'zolari barchasini muhokamada faol jalb etishga harakat qilishi lozim. Tadqiqot muhokama jarayoniga halaqit beradigan omillar mavjud bo'lmagan joyda o'tkazilishi lozim. Muhokama ishtirokchilari doira shaklidagi stol atrofida yuzma-yuz, moderator esa stolning o'rtasida o'tirishi talab etiladi.

Munozara boshlanishidan avval moderator ishtirokchilarga munozaraning maqsadi va asosiy qoidalari haqida ma'lumot beradi. O'zi uchun ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlarini qayd qiladi. So'ngra munozara ishtirokchilarining bir-biri bilan tanishuvi yuz beradi.

Muhokama odatda ishtirokchilar tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning fikrlarining turli-tumanligini ochib beruvchi ochiq savollardan iborat bo'ladi. Yopiq savollar munozaraning oxirida beriladi. Bu javoblar muhokamadagi muammoning muayyan jihatlariga yo'naltirish imkonini beradi. Munozara jarayonida moderator verbal ("to'g'ri", "yaxshi", "noto'g'ri" kabi so'zlarini aytgan holda), noverbal ko'rinishda (ya'ni bosh qimirlatish, imo-ishora qilish, inkor qilish ishorasi kabi) baholovchi holatlardan imkon qadar qochishi lozim. Chunki ular ekspertlarning fikriga o'z ta'sirini ko'rsatishi va tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Guruh muhokamasi davomida moderator ishtirokchilarga sezdimagan holda besh soniyalik to'xtashlar hamda ayrim savollarni berish orqali guruhni nazorat qilib boradi. Misol uchun "Ayollarning ko'proq qanday holatlarda tazyiqqa uchrashini to'liqroq tushuntirib bera olasizmi?", "Misol keltira yoritilishiga olib kelishi mumkin.



Munozaraning oxirida moderator suhbatning maqsadi haqida eslatib o'tadi, aytilganlarni umumlashtiradi, ishtirokchilarga tashakkur bildirib, ular bilan xayrlashadi. Keyinchalik munozara yozuvlari asosida tahlil o'tkaziladi va hisobot tuziladi.

Fokus guruh – ma'lumot yig'ishning sifatii usuli, standartlashtirilmagan uslubi, yarim rasmiylashtirilgan intervyu hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda uni ma'lum bir vaziyatlarda qo'llash mumkin va samarali hisoblansa, boshqa bir vaziyatlarda u yetarli darajada ma'lumotlar yetkazib berolmasligi boshqa bir vaziyatlarda u yetarli darajada ma'lumotlar yetkazib berolmasligi mumkin. Tadqiqotchining muammoni o'rganishda to'g'ri usulni tanlashi bevosita tadqiqotning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu maqsadda quyidagi jadvalda fokus guruhi qo'llaniladigan va qo'llanilmaydigan vaziyatlarni keltirib o'tishga harakat qilindi (4-jadval).

4-jadval

**Fokus guruh usulini qo'llash imkoniyatlari**

Fokus guruhi usuli	
Qo'llaniladigan holatlar	Qo'llanilmaydigan holatlar
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotni olish maqsadida;</li> <li>2. Tadqiqot gipotezalarini ishlab chiqish maqsadida;</li> <li>3. Biror obyektning sub'ektiv qabul qilinishini o'rganish, baholanishini bilish maqsadida.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Statistik ma'lumotlar olishda;</li> <li>2. Agar o'rganilayotgan mavzu guruhda muhokama qilinishi zarur bo'lmasa;</li> <li>3. Agar natijalarga ko'ra qaror qabul qilish zarur bo'lsa, qo'llanilmaydi.</li> </ol>

Shunday qilib, fokus guruh yo'naltirilgan intervyu sifatida ma'lumot yig'ishning sifatii, yetarli darajada moslashuvchan uslubi hisoblanadi. U aniq xulosalarga kelish imkonini beradi. Qo'llanilganda jiddiy sarf-harajatlarni talab etmaydi. Fokus-guruh usuli mustaqil ravishda va boshqa usullar bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha, bu usul tadqiqotning miqdoriy ma'lumotlarni olish bilan bog'liq bo'lgan yakuniy bosqichida amalga oshiriladi. Chunki fokus guruh usulida olingan ma'lumotlar statistik ma'lumotlarga sifatii tus berish imkonini beradi va tadqiqot natijalari ko'rgazmali ko'rinishga keltiradi.



Fokus guruh usulini ko'p hollarda yo'naltirilgan intervyu bilan aynanlashtirish hollari uchraydi. Ammo bunday qarash to'g'ri emas. Formallashtirilgan intervyular odatda miqdoriy tadqiqotlarda qo'llaniladi. Bu ikki usul o'rtasidagi farqlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (5-jadval):

5-jadval

**Fokus guruh metodi va formallashtirilgan intervyu asosida o'rtasidagi farqlar**

	Fokus guruh usuli	So'rov
<b>Statistik protseduralarga munosabati</b>	Statistik protseduralarni inkor etadi	Statistik protseduralarga asoslanadi
<b>Tanlash</b>	Kichik guruh	Katta guruh
<b>Kelib chiqishi</b>	Psixologiya – gumanitar fanlar	Sotsiologiya, tabiiy fanlar
<b>Metodika</b>	Standartlashmagan proektli, yarim standartlashgan kuzatish, guruhiy muhokama	Standartlashgan: yopiq savollar, anketali so'rov yoki standartlashgan intervyu, kontent tahlil
<b>Muammoning qamrovi</b>	Ko'proq xususiy	Ko'proq umumiy
<b>Ustunliklari</b>	Xulq-atvorning turli xil sotsial-psixologik tasniflarini aniqlash ehtimolining kattaligi	Tanlanma majmuaning katta hajmi. Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash
<b>Kamchiligi</b>	Tahlil qilishda subyektivlik holati bo'lish ehtimolining kattaligi. Malakali moderatorlarga ehtiyojning bo'lishi	So'rovda katta sistematik xatolar bo'lish ehtimoli. Ma'lumotlarni chuqur psixologik tahlil qilishning yetishmasligi

Fokus guruh usuli gender tenglik va munosabatlar bilan bog'liq muammolarni o'rganishda miqdoriy usullardan ko'ra ustunliklarga ega. Chunki bu usul respondentlarning xulq-atvori, ularning xatti-harakati, ulardagi psixologik o'zgarishlarni kuzatish, sifatli fikr va ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi.



**GENDER MUNOSABATLARNI SIFATYIY TAHLIL QILISHDA BIOGRAFIK USULNING O'RNI**

O'tmishdagi hayot tarixini uni yashab o'tgan shaxsning og'zaki yoki yozma guvohliklari asosida o'lchash va baholash biografik usul vositasida amalga oshiriladi. U axborotlarni og'zaki hikoya hamda shaxsiy hujjatlar orqali olish va uni tahlil qilishni nazarda tutadi. Biografik metodning asosiy maqsadi "ma'lum bir shaxs qanday mexanizmlar va hodisalar natijasida yuzaga chiqdi, kelajakda o'z taqdirini qanday shakllantirdi?" degan savollarga javob topishdir. Ushbu usulda gender tadqiqotlar davomida foydalanganida ko'p jihatdan sifatli ma'lumotlar olinadi.

Odatda o'tmishda insonlar o'rtasidagi mavjud bo'lgan muhim voqealar, ijtimoiy aloqalar va xatti-harakatlarning, gender munosabatlarning sabablarini shaxsiy hujjatlar yoki og'zaki hikoyalar vositasida sifatli jihatdan tasavvur qilish mumkin. Shaxsiy hujjatlar deyilganida kundaliklar, memuarlar, esdaliklar, oilaviy yozuvlar, xatlar, intervyular, kuzatuv protokollari kabi hujjatlar nazarda tutiladi. Hikoyalar esa og'zaki ravishda intervyu davomida bevosita jarayon yoki voqea ishtirokchilari tomonidan aytib beriladi. Demak, biografik usul inson hayotining o'tmishdagi noyob jihatlarini, misol uchun karyerasi, shajarasi, muhabbat tarixi, sotsial munosabatlarining xususiyatlari kabilarni shaxsiy yozuvlar yoki og'zaki hikoyalar vositasida o'rganadi. Kamdan-kam hollarda tadqiqotchi "tug'ilishdan vafot etgungacha" bo'lgan barcha voqealarni o'z ichiga olgan tarjimai hol bilan ish ko'radi. Odatda hayotning aniq jihatlari yoki bosqichlariga asosiy e'tibor beriladi.

Tadqiqotlarda "hayot tarixi"ning uch asosiy turini farqlash qabul qilinganligini aytib o'tish lozim. Bular *to'liq*, *mavzuga oid* va *tahrir qilingan hayot tarixi*. *To'liq* «hayot tarixi» shaxsning beshikdan qabrgacha bo'lgan butun hayot yo'liga tavsif beradi. Bu esa katta hajmdagi axborotlar bilan ishlash va ularning tafsilotlarini bilishni talab qiladi. *Mavzuga oid* «hayot tarixi» shaxs hayotining bir sohasiga taalluqli bo'lgan qismini qamrab oladi. *Tahrir qilingan* «hayot tarixi» umuman olganda, ham to'liq, ham mavzuga oid bo'lishi mumkin. Uning bosh xususiyati — tadqiqotchining yetakchi




o'rni bo'lib, u nazariy mantiqqa muvofiq biografik ma'lumotlarni to'playdi, tadqiqotda qo'yilgan savollarga javob berish uchun shaxslarning dastlabki hikoyasini tanlab tahlil qiladi va izoh beradi. Ko'pincha tahrir qilingan «hayot tarixlari»ning aksariyati mohiyatan nazariy tadqiqot uchun tasviriy yoki isbotlovchi ma'lumotga aylanadi.

Biografik usuldan turli soha vakillari foydalanadi. Misol uchun madaniy etnograflar va tarixchilar yashirin yoki yopiq hamjamiyatlarning siyosiy mexanizmlarini o'rganishda kundaliklar va respondent xotiralariga tayanishadi. Gender tadqiqotlari doirasida esa biografik usul odatda institutsional qoidalar asosida odamlarning xulq-atvorlarini, voqealarning vaqt davomidagi o'zgarishini, ijtimoiy status va rollarni, stereotiplarni, qadriyatlarini tadqiq qilishda keng qo'llaniladi. Shunday qilib, biografik usul hayotiy-tarixiy guvohliklarni, mazkur hayotni yashab o'tganlar tomonidan ma'lumot sifatida qoldirilgan xabarlarini o'lchash va baholash usullarini qamrab oladi. Shu bilan birgalikda tadqiqot so'rov yoki kuzatuv natijalari, turli xil dalolatnomalar, oila yoki inson tarixiga oid hujjatlarda aks etgan ma'lumotlarni ham qamrab olishi mumkin.

Biografik usul alohida olingan kishilar va oilalar tajribasi orqali ijtimoiy hodisa, me'yor va qadriyatlar dinamikasini o'rganishda muhim vositadir. Bu kabi ma'lumotlar jamiyat hayotining burilish nuqtalarida katta ahamiyatga ega. Chunki aynan alohida olingan kishining biografiyasi ma'lum sotsial jarayonlarning tipik ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin.


Biografik usul bugungi kunda sotsiomadaniy va gender tadqiqotlar doirasida keng qo'llaniladi. Chunki miqdoriy usullar vositasida o'rganish qiyin bo'lgan jarayonlarni tadqiq qilishda yordamlashadi. Turli submadaniyatlar hamda sotsial guruhlardagi gender munosabatlarni o'rganishga imkon beradi. Jamiyat insonga doimo ta'sir ko'rsatib keladi. Demak, insonning xulq-atvori yoki turmush tarzi jamiyat ta'sirining izlarini o'zida namoyish qiladi. Biografik tadqiqot mana shunday sotsiomadaniy kodlar, gender munosabatlar va ziddiyatlarni o'rganishga imkon yaratadi. Kishilar aynan ularni o'zlarining shaxsiy hayoti, oilaviy hayoti, tabaqasi, guruhi, butun jamiyat tarixi, insonlarning o'zaro munosabatlari orqali tasvirlab berishadi.

Biografik usul vositasida tadqiqot olib borilganida Glazer-Shtrauss tomonidan birinchi marta 1967 yilda ishlab chiqilgan hayot tarixini asosli tahlil qilish maqsadida bir martalik an'anaviy tadqiqotlar o'tkazish mantig'i qo'llaniladi. Birinchidan, biografik intervyuni o'lchash va baholash juda ko'p vaqtni talab etadi. Ikkinchidan ko'p sonli intervyular tadqiqotning



representativligining garovi sanalmaydi. Misol uchun 20 ta yoki 50 ta holatni o'z ichiga olgan holda tadqiqot olib borish mumkin. Ammo bu tadqiqotning representativligini tekshirish va aniqlashning imkoni bo'lmaydi. Bir tomondan bir martalik holatlar hech qanday umumlashtiruvchi statistik imkoniyatga ega emas. Boshqa tomondan bitta alohida holat nazariyani mukammal emasligini ko'rsatib berishi yoki empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish oqibatida yangi nazariy bilimlarga asos bo'lishi mumkin.

*Biografiyaga oid ma'lumotlarni to'plash.* Shaxsning o'z hayotidagi voqealar to'g'risidagi har qanday og'zaki yoki yozma hikoyasi biografiyaga oid ma'lumotlardir. Ma'lum sharoitlarda "hayot tarixi"ni tasvirlash uchun ikkilamchi manbalar – boshqa shaxslarning xotiralarini, xatlar, rasmiy hujjatlar va boshqalardan foydalanish mumkin. Biografik usul har qanday biografik va materialdan tadqiqot va amaliy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutadi. Bunda ma'lumot manbasi sifatida quyidagilar o'rganilishi mumkin (23-rasm):



23-rasm. Biografik usul manbalari

Hozirgi kunga qadar biografik usulda olingan ma'lumotlarni o'lchash va baholashning qat'iy belgilangan usullari ishlab chiqilmagan. Odatda empirik tajribadan o'tgan va ishonchliligi aniqlangan natijalar inobatga olinadi. Mazkur usuldan foydalanganda paydo bo'ladigan muammolar ilmiy tadqiqot guruhlarini tomonidan muhokama va munozara yo'li bilan hal qilinadi. Aksariyat mualliflar biografik usul uchun asosiy o'lchov vositasi sifatida intervyu va uning turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylashadi. Intervyu, so'rovnomalar va og'zaki ma'lumotlarning so'zma-




so'z qaydlari "hayot tarixlari"ni yaratishda yetakchi rol o'ynaydi. Ammo bu yerda standartlashtirilgan intervyuni qo'llash mumkin emasligini alohida ta'kidlash lozim. Tadqiqot davomida intervyuning qay darajada ochiq bo'lishi tadqiqotchi tomonidan belgilanadi. U ichki yo'naltirilgan intervyu, narrativ intervyu yoki leytmotiv intervyu ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

N.Denzin tomonidan "hayot tarixlari"ni tahlil qilish va tasvirlashning umumiy ishlab chiqilgan bosqichlarini biografik usulni amalga oshirish va tahlil qilishda qo'llash ma'qul. Quyida bu bosqichlar jadval ko'rinishida taqdim etildi (24-rasm).



**24-rasm. N.Denzinning "hayot tarixlari"ni tahlil qilish bosqichlari**



Yuqorida keltirilgan chizma biografiyaga oid ma'lumotlar bilan ishlash vaqtida namuna bo'lib xizmat qiladi.

**Biografik usulda olingan ma'lumotlarini tahlil va talqin etish**

o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'plangan ma'lumotlar olinish uslubidan kelib chiqqan holda mos ravishda tahlil va talqin qilinadi. Biografik usul, ya'ni bevosita muallifdan olingan biografik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali muallifning psixologik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Kauzometriya (sababni o'lchovchi) usuli inson hayoti va uning vaziyatdan kelib chiqqan holda psixologik holatini o'rganishga mo'ljallangan. U intervyu sifatida o'tkaziladi va sababiy munosabatlar natijasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Kauzometriya asosida voqea yoki jarayon qismlarga bo'lingan holda tahlil qilinadi:

- ✓ xulosa ma'lumotlarini yig'ish;
- ✓ eng muhim voqealarni ajratib ko'rsatish;
- ✓ ushbu voqealarni miqdoriy ketma-ket sanash;
- ✓ ushbu hodisalardagi munosabatlarni ochib berish;
- ✓ olingan ma'lumotlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib tahlil qilish;
- ✓ har bir hodisaning ma'lum sohalar bilan aloqasini ko'rib chiqish.

So'rov usuli davomida biografik anketada insonning hayot yo'li ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi bandlar ko'rsatilgan bo'ladi. Olingan ma'lumotlar shu bandlar asosida tahlil va talqin qilinadi. Bu bandlar o'rganilayotgan shaxsning hayot yo'li, ijtimoiylashuv bosqichlari, rivojlanish muhiti, qiziqishlari, salomatligini o'z ichiga qamrab oladi: .

Biografik ma'lumotlarni tahlil qilishda sharhlash modellari ham ishlatiladi. Ular umumiy izohlar va sababiy qonuniyatlarni ishlab chiqish bilan chegaralanmaydi. O'rganilayotgan shaxsning nuqtai nazaridan kelib chiqib, voqealarning subyektiv mazmunini anglab yetishga qaratilgan bo'ladi. Bu holda ham sharhning aniqligi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish, shaxsiy xabarlarini tanqidiy baholash orqali talqin qilish kerak bo'ladi. Bunda shaxsiy hujjatning aniqligi, haqiqiylikni baholash, boshqa dalillar bilan muvofiqligini aniqlash, ba'zan esa muallifni aniqlash ko'pincha zarur bo'ladi.




## GENDER MUNOSABATLARNI BAHOLASHDA KUZATISH USULI

Kuzatish usuli orqali tadqiqotchi o'zi guvoh bo'lgan voqeani bevosita qayd etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kuzatishlar insonlar xulqini tadqiq etishda samarali usul sanaladi. Bu usul barcha ijtimoiy fanlar doirasida keng qo'llaniladi. *Kuzatish* – tadqiqotchi tomonidan dastlabki axborotni bevosita va to'g'ridan-to'g'ri yig'ish imkonini beruvchi usul. Ushbu usul o'z tabiatiga ko'ra sodir bo'layotgan voqealarga diqqat bilan qarash, ularni to'g'ri idrok etish, qayd etish va tahlil qilishni anglatadi. Iloji bo'lsa kuzatish jarayoni maxsus metodik hujjatlar yordamida amalga oshiriladi.

Keyingi paytlarda kuzatish odatda dala tadqiqotining elementi ko'rinishida ishlatilib, maxsus tayyorlangan dastur bo'yicha amalga oshiriladi. Bu dasturda kuzatiluvchilarning xatti-harakatidagi turli xil elementlarini qayd qilish uchun standart ramziy usullardan foydalaniladi. Kuzatish bitta shaxsning yoki guruhning harakatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun o'zbek oilalaridagi gender munosabatlarni kuzatish usuli vositasida tadqiq qilish, ularni o'rganish va o'zgarish tendensiyalarini aniqlash mumkin bo'ladi.


Bugungi kunda kuzatish jarayonida ko'pincha ma'lumotlar video yoki audio uskunalar vositasida yozib olinadi. Bunda tadqiqotchilar maxsus diktofonlar, videokameralar, telefonlar kabi zamonaviy gadjetlardan keng foydalanishadi.

Oldindan aynan qanday ijtimoiy jarayonlar kuzatuvchini qiziqtirishi tadqiqotning maqsadi va vazifalari dorasida aniqlashtiriladi. Kuzatuv ro'yxatga olish birligi sifatida u yoki bu xatti-harakat, xulq-atvor akti namoyon bo'ladi. Masalan, bolalar va ota-onalarning o'zaro hissiy reaksiyasi; akar-ukalar opa-singillarning o'zaro og'zaki murojaatlari; o'g'il bolalarning yoki qiz bolalarning onaga, otaga yoki oilaning boshqa a'zolariga nisbatan murojaat qilgandagi nutqi kabilar. Bu holatlarni qanday tashqi belgilari bo'yicha kuzatish mumkinligi, kuzatish qay sharoitlarda yuz berishi va natijalar qanday qayd etilishi belgilab olinadi. Kuzatish jarayoni boshlangach, kuzatuvchini



qiziqtirayotgan ma'lumotlar qayd etiladi. Yozib olingan ma'lumotlarga asoslanib, o'rganilayotgan hodisalarni miqdoriy hisobga olish amalga oshiriladi. So'ngra unga tegishli baho beriladi, umumiy xulosalar chiqariladi, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Gender munosabatlarni kuzatish paytida ma'lumotlarni olish, qayd etish va talqin qilish bir qator talablarga javob berishi kerak (25-rasm).



25-rasm. Gender munosabatlarni kuzatish paytida ma'lumotlarni olish, qayd etish va talqin qilish talablari

### Bu talablarni quyida batafsil yoritib o'tamiz:

1. Erkaklar va ayollarning munosabtlariga baho berish maqsadida kuzatish usulidan foydalanganda ularning xatti-harakatlari uzoq vaqt davomida, shuningdek, nafaqat erkak va ayollarning rollaridan kelib chiqib, balki turli vaziyatlarda kuzatilgach, baholanishi lozim.
  2. Kuzatuv davomida olingan ma'lumotlar bir necha kuzatuvchi tomonidan qayd etilishi va ularni o'zaro solishtirish imkonini bo'lishi lozim.
  3. Erkaklar va ayollarning xatti-harakatlarini subyektiv ta'sirga berilmasdan xolisona baholash, hamdardlik yoki antipatiya kabi tuyg'ulari kuzatuv natijalariga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.
  4. Kuzatish natijalari faqat empirik faktlardan iborat bo'ladi, ya'ni kuzatish ma'lumotlari faqat nutq va motorli xatti-harakatlardan tashkil topgan tashqi faktlarni qamrab oladi. Oila a'zolarining o'zaro nutqini, ular nimani va qanday aytayotganini, otasi, onasi, boshqa oila a'zolarining so'zlariga qanday munosabatda bo'lishini va qanday harakatlarni amalga oshirayotganini kuzatish mumkin. Shuning uchun har qanday qonuniyatlarni o'rnatish faqatgina olingan faktlarni juda sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu, albatta, oilani o'rganishning boshqa usullari bilan to'ldirilishi kerak.
- Demak, gender kuzatishlar odatda maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, kuzatuvchi nimani kuzatishga harakat qilayotganligini aniq tasavvur qiladi.



Bu asosiy va kerakli bo'lgan ma'lumotlarni tasodifiy va ikkinchi darajali ma'lumotlardan farqlash imkonini beradi. Shuning uchun ilmiy kuzatishlar tizimli ravishda olib boriladi. Katta auditoriyani kuzatish yagona qo'llanma asosida bir nechta tadqiqotchilar tomonidan amalga oshiriladi. Unga odatda yetarli darajada vaqt sarflanadi. Kuzatish qanchalik uzoq vaqt davom etsa, ma'lumotlar sifati va miqdori ortadi. Bu o'z o'rnida tadqiqotchiga tasodifiy holatlar va doimiy takrorlanuvchi holatlarni (qonuniylikni) o'zaro farqlash imkonini beradi, uning xulosalari chuqur va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Kuzatishning bir qancha turlari mavjud. Ular gender tadqiqotlarining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mos ravishda qo'llaniladi. Ularni quyidagi tarzda ko'rish mumkin (26-rasm):

*Kuzatish usulining afzalliklari va kamchiliklari*

Inson idrok qilishni boshlagach atrofdagi barcha jarayonlarni, insonlarning o'zaro aloqalarini kuzatishga kirishadi. Kuzatgan voqealarini tahlil qiladi, hulosa chiqarib, hatto kelajakni bashorat qilishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan kuzatish – bilim olishning inson tabiatiga eng yaqin qadimiy usuli.

Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish usuli sifatida kuzatishning o'ziga xosligi hodisa va jarayonlarni to'laqonli kuzatish orqali boshqa usullar yordamida qayd qilib bo'lmaydigan xulq-atvor yo'nalishi, mimika, individlarning, guruhlarning xatti-harakatlarini qayd qilish imkoniyatining mavjudligida namoyon bo'ladi.

Kuzatish usulining keyingi afzalligi tadqiqotchi va tadqiq qilinayotgan obyekt o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bo'ladi, ya'ni uning bevositaligidir. Tadqiqotchi sodir bo'layotgan voqea-hodisa, xatti-harakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rib baholashi empirik bilishning muhim ko'rsatkichi sanaladi. Biroq afzallik bir lahzada kamchilikka aylanib qolishi mumkin. Chunki kuzatish davomida tadqiqotchilarning xodisalarning tabiiy borishiga aralashuvi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Kuzatish usulini qo'llash uchun tadqiqotchi yuqori malakali mutaxassis bo'lishi talab etilmaydi. Ko'p hollarda nomutaxassislarining "nigohi" mutaxassis sub'ektiv pozitsiyasidan xoli bo'lgan ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Ko'p hollarda kuzatish insonlarga bildirmagan holatda amalga oshirilgani uchun kuzatilayotgan insonlarning roziligi talab etilmaydi. Ma'lumotlar tabiiy holatlarda olinadi va bu ma'lumotlarning obyektivligini ta'minlashda yana bir asos bo'ladi.



oshkora kuzatish

yashirin kuzatish

uzoq muddatli kuzatish

qisqa muddatli kuzatish

## KUZATISH TURLARI

chetdan kuzatish

qo'shib kuzatish

rasmiy kuzatish

rasmiy bo'lmagan kuzatish

dala sharoitida kuzatish

laboratoriya sharoitida kuzatish

tizimli kuzatish

epizodik kuzatish

bexosdan kuzatish

### 26-rasm. Kuzatish turlari

Kuzatish usuli qo'llanilganida maxsus uskunalari qo'llanilishi mumkin. Boshqa usullarga solishtirilganida ular u qadar ko'p miqdordagi mablag'ni talab etmaydi. Tadqiqot o'tkazish uchun mahsus joy va anketalarni chop etish kabi tashkiliy masalalar odatda talab qilinmaydi.

Kuzatishni boshqa sotsiologik usullar bilan birga olib borishning imkoniyati mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Uni anketa so'rovi, intervyu, hujjatlar tahlili va sotsial eksperiment bilan birga qo'shimcha yoki asosiy usul



sifatida qo'llash mumkin. Ikkita usulni bir paytning o'zida qo'llash, ko'pincha tadqiqot doirasida samarali natijalar beradi.

Bir tomondan kuzatishlar davomida respondentlarga va ularning xatti-harakatlariga kuzatuvchi tomonidan ta'sir ko'rsatilmaganligi ma'lumotlarning obyektiv qayd etilishini ta'minlaydi. Boshqa tomondan esa kuzatuvchining dunyoqarashi, ma'lumotlarni qabul qilishi bevosita uning xulosalarida aks etishi tufayli bu usul o'ta subyektiv hisoblanadi.

Kuzatishning kamchiliklari tadqiqotchi tomonidan barcha jamlangan ma'lumotlar o'rganilayotgan jarayonni butunligicha qamrab ololmasligi, qo'shilib kuzatish davomidagi tadqiqotchi duch keladigan qiyinchiliklar, subyektivlikdan qochib bo'lmaslik kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

**Kuzatish instrumentariysini tayyorlash boshqichi.** Ushbu bosqich davomida kuzatuv kundaligi, kuzatish kartochkalari, kuzatish protokoli, kontent analiz klassifikatori ishlab chiqiladi, audiovizual texnik vositalar, kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlash dasturi tanlanadi va tayyorlanadi.

*Kuzatuv kundaligi, kuzatish blanki (varaqasi) va protokoli metodik hujjat* sanaladi. Ularda kuzatish obyekti reaksiyalarini qayd etishdan tashqari kuzatish jarayoni qanday kechayotganligi, kuzatish natijalari, kuzatuvchining o'z harakatlari, tadqiqotchining instrumentariyni qay darajada baholashi kabi ma'lumotlar mujassamlashgan bo'ladi. Kuzatish kundaligida jadval ko'rinishida gorizontal qatorlarga kuzatiluvchilar ismi-sharifi, vertikal ustunlarga esa kuzatilayotgan xususiyatlarning ro'yxati kiritilgan bo'lishi mumkin.

*Kuzatish blanki (varaqasi)* – kuzatishlarni qayd qilish uchun har tomonlama ishlab chiqilgan hujjat. Unda kuzatishlarni o'tkazish joyi, vaqti, kuzatiluvchilar soni, kuzatishlar soni, kuzatish maqsadi kabilar uchun belgilangan joylar ajratilgan bo'ladi.



## GENDER TADQIQOTLARDA EKSPERT FIKRI ASOSIDA XULOSA BERISH

Amaliyotda gender tadqiqot muammolarini o'rganish davomida ayrim holatlarda mutaxassislarning fikrlari va bilimlaridan foydalanish kerak bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlarda ekspert baholash usuli samarali qo'llaniladi. U odatda ijtimoiy xodisa yoki jarayonlarning qay darajada, qanday yo'nalishda o'zgarishini oldindan bashorat qilish, muammoli vaziyatlarning oldini olish, muammolarning yechimlarini topish, real va potensial darajadagi xavotirli vaziyatlarni oldindan aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bunday axborot faqatgina tadqiqot obyekti haqida chuqur va mukammal bilimga ega bo'lgan mutaxassialardan olinishi mumkin.

Ekspert baholash usuli ko'rib chiqilayotgan muammoni tahlil qilish, oldini olish, hal qilish, bashorat qilishda mutaxassislarning ishtirokini nazarda tutadi. Gender tadqiqotlar amaliyotida mazkur usul bir qator holatlarda keng qo'llanilishi mumkin (27-rasm)<sup>35</sup>.




27-rasm. Gender tadqiqotlar amaliyotida ekspert so'rovi usulining qo'llanilish holatlari

<sup>35</sup> Мягков А. Ю. Использование экспертных оценок при диагностике неискренних ответов респондентов // Социологический журнал. 2002. No3. URL: <<http://knowledge.isras.ru/sj/sj/sj3-02myag.html>>.



Ekspertlar guruhi, eng avvalo, uch jihati bilan tadqiqot muammosiga aloqador bo'lishi kerak (28-rasm).



- ekspertning mashg'ulot turi
- ekspertning ish staji
- ekspertning malaka darajasi

**28-rasm. Ekspertlar guruhining tadqiqot muammosiga aloqadorligi**

Ekspertlar guruhining shakllantirilishi bir nechta bosqichlarni qamrab oladi. Ehtimoliy ekspert eng avvalo uch jihati bilan tadqiqot muammosiga aloqador bo'lishi kerak.

**Birinchi, ekspertning kasbi, faoliyati yoki mashg'uloti o'rganilayotgan muammoga mos tushishi kerak.** "Oiladagi tazyiq va zo'raonliklar sabablari va ularni hal etish usullari" mavzusi doirasida ekspert so'rovi o'tkazilsa, ularning tarkibiga oila muammolari bilan shug'ullanuvchi sohaning malakali vakillari: psixologlar, ichki ishlar hodimlari, mahallalardagi xotin-qizlar faollari kirishi mumkin.

**Ikkinchi, ekspertning muayyan soha bo'yicha ish staji yetarli darajada bo'lishi kerak.** Mutaxassisning ko'p yillik tajribasi uning o'rganilayotgan muammo yuzasidan nafaqat nazariy, balki amaliy bilim va ko'nikmalarga ega ekanligidan dalolat beradi. Zarurat bo'lgan paytda mutaxassisning ma'lumot darajasi, yoshi va boshqa parametrlari ham hisobga olinadi.

**Uchinchi, mutaxassisning soha bo'yicha bilim va malaka darajasi bo'lib, u ekspertlarni tanlashda asosiy o'rinni egallaydi.** Ekspertning malakasini aniqlashda ekspertlarning o'ziga o'zi baho berishi va ekspert malakasining jamoa tomonidan baholanishi usullaridan foydalaniladi.



**Birinchi usul** – ekspertlarning o'ziga o'zi baho berishi. O'zini-o'zi baholashning eng oson va qulay shakli bu yig'indi indeksi bo'lib, u ekspertlar tomonidan o'zining bilimi, tajribasi va qobiliyati "yuqori", "o'rta", "past" darajada baholanishini nazarda tutadi. Bunda yuqori – 1, o'rta–0.5, past – 0 son qiymati vositasida ifodalanadi. Ekspert malaka darajasining koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$k = \frac{k_1+k_2+k_3}{3}$$

Bu yerda,

- $k_1$  – ekspert tomonidan o'zining nazariy bilimlariga qo'ygan bahosi;
- $k_2$  – ekspert tomonidan o'z amaliy tajribasiga qo'ygan bahosi;
- $k_3$  – ekspertning o'z bashorat qilish xususiyatiga bahosi.

Malaka darajasining koeffitsiyenti 1 dan 0 gacha, ya'ni to'liq malakalilikdan butkul malakasizlikkacha bo'lishi mumkin. Odatda ekspertlar guruhiga malaka indeksi o'rta darajadan yuqori darajagacha (0,5 dan 1gacha) bo'lgan respondentlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ekspertlar malakasi indeksini hisoblash uchun o'zini o'zi baholashning birlamchi son ko'rsatkichlarini ( $k_1, k_2, k_3$ ) jadval shaklidagi savollar yordamida olish mumkin. Bunga quyidagicha misol keltirish mumkin (6-jadval).

6-jadval

**Ekspertlarning o'zini o'z baholash usuli.**  
Siz "Gender tenglik va munosabatlar" borasidagi bilim imkoniyatlaringizni qanday baholaysiz?

(Iltimos, har bir satrda ta'kidlab o'tilgan band qarshisida mos keluvchi baholashni (+) belgisi qo'yish orqali belgilang)

"Munosabat" mezonlari	Yuqori	O'rta	Past
	1	0.5	0
Muammoni nazariy jihatdan bilish darajasi ( $k_1$ )			
Muammo borasidagi amaliy tajriba ( $k_2$ )	+		
Xodisalarni mantiqiy joylashtirish va bashorat qilish $k_3$		+	



Jadvalning kataklarida (+) bilan belgilangan baholashlarning son qiymatlaridan kelib chiqqan holda ekspertning oila muammolari bo'yicha malakasi koeffitsienti hisoblanadi:

$$k = \frac{1 + 0.5 + 0.5}{3} = \frac{2}{3} = 0.7$$

Olingan natijalar shundan darak beradiki, tadqiq qilinayotgan masala bo'yicha ekspertning malaka darajasi o'rtadan yuqori. O'zini o'zi baholash usuli bo'yicha ekspertlarni tanlab olishda o'ziga ortiqcha baho berish muammosi paydo bo'ladi. Biroq mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, "ko'p sonli ekspertizalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi yuqori baholovchi guruhlar odatda ekspertizani o'tkazish paytida boshqalarga nisbatan kam xato qiladilar"<sup>36</sup>.

Ikkinchi usul ekspertlar malakasining jamoa tomonidan baholanishi. Jamoaviy baholash usulidan ekspertlar bir-birini mutaxassis sifatida yaxshi bilgandagina foydalanish mumkin. Bular olimlar, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar, mashhur siyosatshunoslar, iqtisodchilar bo'lishi mumkin.

Faraz qilaylik, o'nta ekspertdan tashkil topgan ro'yxat mavjud. Bu ekspertlarning har biridan ro'yxatdagi eng malakali beshta hamkasbini ajratib berishi so'raladi. Javoblar asosida jadval tuzib chiqiladi va ular 1 dan 10 gacha sonlar bilan belgilanadi. Birinchi ustunda tanlanganlarni, birinchi qatorda esa tanlovchilar ko'rsatiladi. Jadvalning kataklarida 1 soni tanlashni, tire esa tanlashning mavjud emasligini, 0 esa xech kim o'zini tanlamaganligini bildiradi. Quyida ushbu jadvalning namunasi keltirib o'tilgan (7-jadval).

<sup>36</sup> Мягков А. Ю. Использование экспертных оценок при диагностике неискренних ответов респондентов // Социологический журнал. 2002. No3. С 23. URL: <<http://knowledge.isras.ru/sj/sj3-02myag.html>>



Ekspertlarning jamoaviy o'zaro baholashlari

Kimni ko'rsatishdi	Kim ko'rsatdi										Necha marta ko'rsatishdi
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1	0	-	-	1	1	1	-	1	-	1	5
2	1	0	1	1	-	1	1	1	1	1	8
3	-	1	0	-	1	-	-	-	-	-	2
4	1	1	-	0	-	-	1	1	1	1	6
5	1	1	1	1	0	1	1	-	1	-	7
6	-	-	1	-	1	0	1	-	1	-	4
7	1	1	1	1	1	1	0	-	1	1	8
8	-	-	-	1	-	-	-	0	-	1	2
9	-	1	1	-	1	1	1	1	0	-	6
10	1	-	-	-	-	-	-	1	-	0	2
Jami	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	50

Jadvalning oxirgi ustunida har bir ekspert olgan "ovozlar" yig'indisi keltiriladi. Bu sonlar muayyan ekspert xaqida fikr bildirishning mezonini hisoblanadi. Keyin ular jadvaldagi bir soniga almashtiriladi (ustunlar bo'yicha) va natijada o'nta ekspertning darajasini aks ettiruvchi ustun hosil bo'ladi.

Shunday qilib agar beshta eng malakali mutaxassislarning guruhini tuziladigan bo'lsa, oxirgi ustundagi baholashlar asosida 7, 5, 2, 9 va 4 sonidagi ekspertlarni tanlash kerak bo'ladi.

Ekspert baholash usulining to'rtta asosiy vazifasi bor. Bular: *holatni baholash; hodisa yoki jarayon sabablarini aniqlash; ijtimoiy jarayonlar rivojlanishini prognoz qilish; ijtimoiy muammolarning yechish usullari va shakllarini ishlab chiqish* (29-rasm).



1.

holatni baholash

hodisa yoki jarayon sabablarini aniqlash

2.

3.

ijtimoiy jarayonlar rivojlanishini prognoz qilish

ijtimoiy muammolarning hal qilish usul va shakllarini ishlab chiqish.

4.

### 29-rasm. Ekspert baholash usuli vazifalari

Prognoz qilish xususiyati ekspert baholashlarini ommaviy so'rov natijasida olingan ma'lumotlardan farqlab turadi. Ommaviy so'rov paytida respondentlar fikrlarining xilma-xilligi, ularning xulq atvori o'lchansa, ekspert so'rovlarining vazifasi muammoning xarakteri, uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashdan iborat. Aynan mana shu baholash asosida muammoning rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ko'rsatib berish mumkin. Bu holatda ekspertlar O'zbekistonda ma'lum vaqt oralig'ida faoliyatning turli sohalarida gender tengsizlikning o'zgarish tendensiyasi, yo'nalishlarini prognoz qiladi va prognoz asoslarini keltirib o'tadi.

Ommaviy so'rovda respondentlarning miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lumotlarning barqarorligi va ishonchliligi shuncha yuqori bo'ladi. Ekspertlarga oid so'rovlarda esa ishtirok etuvchi shaxslarning yuqori malakasi tufayli xattoki bitta ekspertning fikri yetarli darajada asoslangan va ishonchli bo'lishi mumkin. Umuman olganda prognozga oid ekspert baholashni istalgan ijtimoiy hodisa va jarayonga nisbatan tadbii qilish mumkin. Masalan, ekspertlardan hududlarda kim tuman/shahar hokimi yoki deputat bo'lish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega ekanligi haqidagi fikrlarni so'rab bilish mumkin. Bu holatda ekspertlar sifatida jurnalistlar, sotsiologlar, siyosatshunoslar ishtirok etsa bo'ladi.



Mamlakatda gender tenglikning rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari to'g'risida prognoz qilish paytida gender masalalari bo'yicha ilmiy va analitik tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar, huquqshunoslar, ilmiy-tadqiqot instiutlari yetakchi mutaxassislari bilan ekspert so'rovi o'tkazish maqsadga muvofiq. Ta'lim sohasidagi muammolar va ma'lum darajadagi inqirozning sababini aniqlashda ilmiy muassasalarning rahbarlaridan fikr olish mumkin. Uyushmagan yoshlar orasida jinoyatchilik holatlari va ularni bartaraf etish yo'llari borasida ichki ishlar hodimlari, maktabdagi mutaxassislar bilan ekspert so'rovi o'tkazish mumkin.

Ommaviy so'rovlarda ishlatiladigan ba'zi bir texnik va metodik usullar ekspertlardan tashkil topgan o'ziga xos auditoriya bilan so'rov o'tkazishda qo'llanilmaydi. Muammo yuzasidan to'liq ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar uchun ekspert varaqasida respondentning "yashirin" nuqtai nazarini aniqlashga qaratilgan bilvosita yoki nazorat savollar, testlar yoki shu kabi usullarni qo'llashga xojat yo'q. Bu usullardan foydalanish esa ekspert so'rovining sifatiga sezilarli darajada zarar keltirishi mumkin. Ekspertdan tadqiqot maqsadini yashirish va uni ma'lumotning ishonchli bo'lmagan manbasiga aylantirish ekspertning tadqiqochilarga nisbatan ishonchining yo'qolishiga olib keladi.

Ekspert baholash usulining asosiy vositasi mahsus dastur asosida ishlab chiqilgan so'rovnoma yoki intervyu-varaqasi hisoblanadi. Ekspertlarga beriladigan savollar ommaviy so'rovlar davomida qo'llaniladigan savollardan murakkablik darajasi bilan farq qiladi, u ko'p xollarda konseptual xarakterga ega bo'ladi. Unda prognoz qilinishi kerak bo'lgan hodisa bitta yondashuv nuqtai nazaridan ifodalansa-da, faraz sifatida bir qancha fikrlar ko'rib chiqiladi. Ularning sabablarini bitta fikr yoki javob doirasida shakllantirishning iloji bo'lmagan holatlarda qo'shimcha javob yozish imkonini berish maqsadida ekspert savolnomasida yarim ochiq savollar qo'yiladi. Javob tanlashda mutlaqo erkinligiga yo'l qo'yiladi.

Faraz qilaylik, tadqiqotchi so'nggi 10 yil ichida oila institutining rivojlanish dinamikasini o'rgangan holda keyingi 10-20-yillikda kuzatilish mumkin bo'lgan tendensiya va o'zgarishlarni prognoz qilmoqchi. Biroq u qanday o'zgarishlar bo'lishi, ularning sabablari u yoki bu tomonga og'ishini tushuntirishga qiynalayotgan bo'lishi mumkin. Unda ekspertga erkin holda



berilayotgan savollarning birinchisi quyidagicha bo'lishi mumkin: "Siz nima deb o'ylaysiz, oila institutining yaqin 10-20 yil ichida rivojlanishi qanday kechadi?" Keyinchalik javoblar variantiga bog'liq bo'lmagan holda quyidagi savol beriladi: "Sizning xulosangiz qaysi dalillar va taxminlarga asoslangan?"

Agar tadqiqotchining o'zi prognoz nima bilan tugashi haqida taxminlarga ega bo'lsa, uning o'zi ham prognozga doir farazlarini shakllantirishi mumkin. Bunday prognozlar ta'kidlash ko'rinishida ekspert so'rovnomasining asosini tashkil qilishi mumkin. Oldingi misol asosida yarim yopiq savol qanday bo'lishi mumkinligi quyidagi namunada keltirib o'tilgan (8-jadval).

8-Jadval.

"Siz nima deb o'ylaysiz, jamiyatimizda oila institutining yaqin 10-20-yil ichida rivojlanishi qay tarzda kechadi?"

1. Jamiyatning demokratlashuvi oilaviy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda oilalardagi munosabatlarning erkinlashuviga olib keladi.

2. Ayrim oilalarda er va xotin vazifalarining o'zgarishi sababli muammoli vaziyatlar kuzatilishi mumkin.

3. Demokratik qadriyatlarining shakllanishi, aholi orasida ma'lumotlilik darajasining ko'tarilishi, OAV ta'sirining kuchayishi, Internet imkoniyatlarining ortishi bilan madaniy qadriyatlarining turli shakllaridan bahramand bo'lish imkoniyati xam oshadi. Bu oiladagi milliy va diniy qadriyatlarining o'zgarishiga, oiladagi rollarning almashinuviga ta'sir ko'rsatadi.

4. Xuddi hozirgidek oila institutining barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar o'zaro bir-birini to'ldirib turadi. Shuning uchun oila institutining jamiyatdagi o'rni va holati deyarli o'zgarmasdan qoladi

5. (o'z javob variantingizni yozishingiz mumkin) \_\_\_\_\_

Ekspert prognozining eng sodda shakllaridan biri *fikrlar almashinuvidir*. Bunda ma'lum bir paytda va joyda ekspertlar guruhi davra suhbatini uchun doira shaklidagi stol atrofida yig'iladi. Davra suhbatini davomida o'rganilayotgan masala bo'yicha ustunlik qiluvchi holat aniqlanadi va tadqiqotchilar tomonidan shakllantiriladi.



Munozara uchun ekspertlar guruhi ma'lum bir qoidalar asosida tanlab olinadi va bir nechta kichik guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhlarining birinchisi "*fikrlar generatori*" deb ataladi va ular ijtimoiy hodisa yoki jarayon haqida prognoz qilinayotgan taxminlarni faol ravishda ilgari suradi;

ikkinchisi "*regulyatorlar*" guruhi bo'lib munozara tartibsiz xarakterga tushib qolmasligi uchun munozaraning obyektivlik doirasida borishini boshqarib turadi;

uchinchisi "*sektorlar*" guruhi bo'lib, "*fikrlar generatori*" ilgari surgan fikrlar ichidan eng diqqatga sazovorlarini tanlab oladi;

to'rtinchisi "*stimulyatorlar*" guruhi – ular "*fikrlar generatori*" tomonidan ilgari surilgan fikrlarning baholanishini rag'batlantirib, qo'llab-quvvatlab turadi. Nihoyat, "*davra suhbatini prezidenti*" ekspertlar guruhi diqqatini munozaraning markaziy mavzusiga qaratib turadi. Davra suhbatidagi ekspertlarning mukammal soni 10 tadan 15 tagacha bo'lishi mumkin.

Ekspertlar muhokamadagi masala bo'yicha muayyan bir fikrga kelmaganlaricha davra suhbatini bir nechta bosqichda davom etishi mumkin. Bunda birinchi bosqich davomida olingan fikrlar sarhisob qilinadi va jadval ko'rinishiga keltiriladi. Quyida shunday jadvalning namunasi keltirilgan (9-jadval).

9-Jadval

**Yaqin 10-20 yil ichida oila institutining ehtimoliy o'zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari borasidagi ekspertlar fikrlari**

Jamiyatda oila institutining rivojlanish tendensiyalari va o'zgarishining bashorati	Bu fikrga qo'shiluvchilar	Bu fikrga qo'shilmaydiganlar
1. Yaqin 10-20 yil ichida jamiyatning demokratlashuvi oilaviy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda oilalardagi munosabatlarning erkinlashuviga olib keladi. Ayrim oilalarda er va xotin vazifalarining o'zgarishi sababli muammoli vaziyatlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun odamlarning oilada o'zaro tushunishi masalasi muammoli bo'lib qolishi mumkin.	1	2



2. Yaqin 10-20 yil ichida demokratik qadriyatlarining shakllanishi, aholi orasida ma'lumotlilik darajasining ko'tarilishi, OAV ta'sirining kuchayishi, Internet imkoniyatlarining ortishi bilan madaniy qadriyatlarining turli shakllaridan bahramand bo'lish imkoniyati xam oshadi. Shuning uchun odamlarning o'z oilasiga ajratadigan vaqti kamayadi. Oilada bola tarbiyasi va sosializatsiyasi masalasi muammoli holatga tushishi mumkin.	3	4
3. Yaqin 10-20 yil ichida, xuddi hozirgidek oila institutining barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar o'zaro bir-birini to'ldirib turadi. Shuning uchun oila institutining jamiyatdagi o'rni va holati deyarli o'zgarmasdan qoladi.	5	6

Bu yerda asosiy maqsad bitta mavzu bo'yicha ekspertlar guruhidan bir necha marta so'rov olish orqali ularning hamjihatlikdagi fikrini aniqlashdan iborat. Birinchi so'rov amalga oshirilib, uning natijalari yuqoridagi jadval ko'rinishiga ketirilgach, umumlashtirilgan xulosalar shaklida ekspertlar guruhi a'zolariga yetkaziladi. Keyin takroriy so'rov amalga oshiriladi va bu so'rov davomida ekspertlar o'zining avvalgi bosqichda aytgan nuqtai nazarini ta'kidlashi yoki ko'pchilikning fikriga yondashgan holda qo'shilishi kuzatiladi. Shu ko'rinishda bu jarayon uch-to'rt marta takrorlanadi. Bu tadbir natijasida umumiy baholash amalga oshiriladi va tadqiqotchi bir nechta takroriy so'rovlardan so'ng ham o'z fikrida qolgan ekspertlarning fikrini e'tibor markaziga oladi.

Albatta, ekspertlarning fikrlari, vaziyatni baholashi bu o'rganilayotgan muammoning eng maqbul usuli yoki "mukammal haqiqat" emas. Chunki lozim.

Bugungi kunda muayyan jarayonlarda qarorlar samaradorligini baholashda ko'plab usullardan foydalaniladi. Ekspert baholashning yana bir usuli Delfi usuli sanaladi. Uning mohiyati ma'lum bir masala yoki vaziyat bilan bog'liq bo'lgan bir guruh odamlarning fikrlarini hisobga olish, ularning yondashuv va xulosalarini izchil birlashtirib, so'ngra tahlil asosida maqbul yechimga erishishdir.



Delfi usulining asosiy xususiyatlari – anonimlik, bilvositalik va ko'p bosqichlilik. Ekspert fikrlarini umumlashtirishni amalga oshirishda "aqliy hujum", so'rovnoma va intervyu usullaridan foydalaniladi. Vaziyatdan manfaatdor bo'lmagan, bevosita qiziqishi bo'lmagan mutaxassislar guruhi manfaatdor guruhga qaraganda vaziyatni ancha xolisona baholay oladi va manfaatdor guruhga qaraganda vaziyatni ancha xolisona baholay oladi va uning rivojlanishini prognoz qiladi. Bunday holda inson omili bartaraf etiladi. Ekspertlar guruhi a'zolarining joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega emas. Ekspertlar guruhi a'zolarining joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega emas. Delfi usulida mutaxassislarni bir joyga yig'ish talab etilmaydi. Ekspertlar Delfi usulida mutaxassislarni bir joyga yig'ish talab etilmaydi. Ekspertlar bir-birini butkul bilmagan holda fikr bildirishadi. Bosqichlar davomida bir-birini butkul bilmagan holda fikr bildirishadi. Bosqichlar davomida umumlashtirilgan fikrlarni olganda ularni kim bildirganini bilmaydi. Shu nuqtai nazardan fikrlarga xolisona yondashuv ta'minlanadi. Delfi usuli doirasida ikki guruh shakllantiriladi. Birinchisi, bevosita ekspertlar guruhi bo'lib, ular bevosita ma'lum mavzu bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirishadi. Ikkinchi guruh esa analitiklar bo'lib, ular fikrlarni umumlashtirgan holda keyingi bosqichga o'tkazish hamda xulosa berish vazifasini bajarishadi.



## GLOSSARIY

**Gender** – bu ayollar va erkaklarning ijtimoiy rolga asoslangan ta’rifi. Bu tushuncha jins atamasi bilan bir xil ma’noni anglatmaydi. Gender jamiyat tomonidan ayollar va erkaklarga ularning jamiyat va shaxsiy hayotida yuklangan vazifalar, funksiyalar va rollar tushunchasi bilan belgilanadi.

**Gender assimetriyasi** – ijtimoiy hayotning turli sohalarida ikkala jinsning ijtimoiy va madaniy rollarining (shuningdek, ular haqidagi qarashlarning) nomutanosib ifodasi. Masalan, aksariyat mamlakatlar aholining yarmidan ko’pini ayollar (51% dan 54% gacha) tashkil qiladi, lekin milliy va mintaqaviy darajadagi siyosat sohasida esa ularning soni ancha kam.

**Gender auditi** xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida, shu jumladan, kadrlar siyosatini olib borishda integratsiyalashgan gender yondashuviga rioya etilishi holatini o’rganish va baholashdir.

**Gender deprivatsiyasi** – gender stereotiplari va hukmronlik munosabatlarining ta’siri tufayli ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi.

**Gender munosabatlari** – bu hozirgi vaqtda gender guruhlarini sifatida ayollar va erkaklar o’rtasida hokimiyatning teng bo’lmagan taqsimlanishi bilan tavsiflangan munosabatlar turi. *Birinchi*dan, bu erkak va ayol jinsiga mansub subyektlar o’rtasidagi munosabatlar, *ikkinchi*dan, bu turdagi munosabatlarda mavqelarning tengsizligi bilan tavsiflanadi.

**Gender rejimi** – bu institutsional va guruh darajasida mavjud bo’lgan va muayyan gender amaliyotlarini belgilaydigan gender tartibidir.

**Gender stereotiplari** – bu erkaklar va ayollarning xususiyatlari va xulq-atvorlari haqida jamiyatda keng tarqalgan qarshlar. Gender stereotiplari ma’lum bir jamiyatdagi mavjud gender rollari bilan chambarchas bog’liq



bo’lib, ularni saqlab qolish va ko’paytirishga xizmat qiladi. Xususan, gender stereotiplari gender tengsizligini saqlashga yordam beradi.

**Gender tadqiqotlari** – ijtimoiy hodisalar va ularning o’zgarishlarini tahlil qilish uchun ijtimoiy jins nazariyasining bilish imkoniyatlaridan foydalanadigan fanlararo tadqiqot amaliyoti. Bu sohaga ayollar tadqiqotlari (ayollar, feminizm, gender va siyosat haqida), erkaklar tadqiqotlari va kvir tadqiqotlari kiradi. Zamonaviy gumanitar bilimlarda gender bilan bog’liq muammolarni o’rganishda biologik va madaniy elementlardan ko’proq foydalanish taklifi ushbu yo’nalishning shakllanishiga turtki bo’ldi. Jinsni o’rganish biologiya va fiziologiyaning predmeti bo’lsa, jinsni tahlil qilish psixolog va sotsiologlarning tadqiqotlari, madaniy va tarixiy hodisalarni tahlil qilish obyekti sifatida qaraladi.

**Gender tahlili** – jamiyat va davlatning barcha sohalarida mavjud yoki taklif etilayotgan dasturlar, qonunchilik, davlat siyosatining ayollar va erkaklarga turli ta’sirini baholash jarayoni. Gender tahlili, shuningdek, sifatli ma’lumotlarni to’plash, iqtisodiyot va jamiyatdagi gender tendensiyalarini tushunish, bu bilimlardan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni aniqlash va kundalik ishda yechim topish uchun foydalanish. Gender tahlili siyosatni ishlab chiqishning har bir bosqichida ayollar va erkaklar o’rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni hisobga oladi.

**Gender tizimi** – bu jinsga qarab belgilanadigan institutlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy o’zaro ta’sirlar. U bir-biri bilan o’zaro bog’liq uchta tarkibiy qismni o’z ichiga oladi. Biologik jinsga asoslangan gender toifalarining ijtimoiy tuzilishi; jinsiy mehnat taqsimoti, unga ko’ra erkaklar va ayollarga turli vazifalar yuklanadi; jinsiy hayotni ijtimoiy tartibga solish, gender munosabatlarning ba’zi shakllarini ijobiy va boshqalarni salbiy baholash. Gender tizimi jinslarning jamiyatdagi o’rni, maqsadi va mavqeiga muvofiq belgilangan tasavvurlar, rasmiy va norasmiy qoidalar va me’yorlarni o’z ichiga olgan erkak va ayol o’rtasidagi munosabatlar majmui. Gender tizimi gender kontraktlar majmui sifatida talqin etiladi.

**Gender yondashuvi (gender o’lchovi)** – jamiyatning ikkala ijtimoiy-gender guruhining manfaatlarini hisobga olish, gender tengligiga erishish uchun maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish.



**Gender differentsiya** – erkak va ayol o'rtasidagi biologik farqlarga ijtimoiy ma'no berilishi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida foydalanish jarayoni.

**Gender stratifikatsiyasi** erkak va ayol jins vakillari ijtimoiy guruhlariga va shaxslarning mavqeilarning ijtimoiy makonda noteng taqsimlanganligi va joylashishi.

**Gender tartibi** – bu ijtimoiy normalar, siyosiy institutlar va siyosiy madaniyat tizimi, jamiyatning gender masalalariga munosabati. Patriarxal gender tartibi erkaklar uchun jamoat sohasida yaqqol ustunlik va ayollarning xatti-harakatlarini qat'iy nazorat qilish bilan tavsiflanadi.

**Gender-huquqiy ekspertiza** – normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish.

**Iqtisodiyotda gender tengligi** – jamiyatning iqtisodiy resurslaridan foydalanish nuqtai nazaridan ayollar va erkaklarning teng huquqiy maqomi.

**Iqtisodiyotda teng imkoniyatlar** – iqtisodiyotda gender tengligiga real erishish uchun zarur bo'lgan vositalar va shart-sharoitlar tizimi.

**Natijalarning tengligi** – teng huquqli maqomni to'liq amalga oshirish va teng imkoniyatlarni ta'minlash natijasida jinslar tomonidan olingan natijalar (daromad, mulk va boshqalar).

**Yangi gender tartibi** – bu ijtimoiy me'yorlar, siyosiy madaniyat va ijtimoiy institutlarning o'zaro ta'siri tizimi bo'lib, uning faoliyati jamiyatda gender muammolariga muayyan munosabatni shakllantirishga va ularni yangi ijtimoiy vaqtning qadriyatlarini va imkoniyatlariga muvofiq hal qilishga qaratilgan.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 192-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4777291>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5466673>
3. Андреенков В.Г., Маслова О.М. Методы сбора информации в социологических исследованиях. Наука, 1990.
4. Батыгин Г.С. Лекции по методологии социологических исследований: Учебник для вузов. М.: Аспект Пресс, 1995.
5. Бутова С.Н. Благополучие семи как предмет социологического исследования. Социология 4/2009.
6. Волкова Л. В. Методика проведения социологического исследования. Методическое пособие. –М.: Издательский центр РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина, 2014.
7. Воронина, О.А. Традиционные философские, социологические и психологические теории пола / О.А. Воронина // Теория и методология гендерных исследований. курс лекций / под общ. ред. О. А. Ворониной. - М.: МЦГИ - МВШСЭН - МФФ, 2001.
8. Воронина О. А. Глоссарий по гендерному образованию // Гендерные исследования: региональная антология гендерных исследований из восьми стран СНГ: Армении, Азербайджана, Грузии, Казахстана, Кыргызстана, Молдовы, Таджикистана и Узбекистана. М.: Вариант: ИСГП, 2006. С. 443—511.
9. Гафизова Н. Б., Королева Т. В. Гендерные стереотипы в современной провинциальной семье: (на примере Ивановской области) // Женщина в российском обществе. 2001. № 3/4. С. 50—53.



10. Гендерная статистика. Практическое руководство. Пособие подготовлено в рамках Программы USAID по правовой реформе в Узбекистане. Ташкент 2023.
11. Горшков М., Шереги Ф. Прикладная социология: Учебное пособие для вузов. М.: Центр социального прогнозирования, 2003.
12. Готлиб, А.С. Введение в социологическое исследование: качественный и количественный подходы. Методология. Исследовательские практики: учеб. пособие / А.С. Готлиб. - Самара: Изд-во «Самарский университет», 2002. – 424 с.
13. Зборовский, Г.Е. Социальное сравнение как повседневное явление и социологическая проблема / Г.Е. Зборовский// Социологические исследования. - 2005. - № 2.
14. Замбржиска А. К. Эмпирическая апробация вопросника в маркетинговом исследовании. Социологические исследования. 1999. №11. URL: <<http://www.ecsocman.edu.ru/socis/msg/244805.html>>.
15. Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л. Н. Попковой, И. Н. Тартаковской. Самара: Самарский ун-т, 2003. С. 10—22.
16. Клецина И. С. Психология гендерных отношений: теория и практика. СПб.: Алетейя, 2004. 408 с.
17. Клецина И. С., Прохорова О. Л. Гендерная компетентность: психологическое содержание и специфика проявления в межличностных отношениях // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. 2010. Т. 5, № 2 : Психология. С. 38—50. 36.
18. Крыштановский А.Ю. Анализ социологических данных. – М.: ГУ ВШЕ, 2007.
19. Мезенцева Е. Гендерная проблематика в экономической теории, [www.owl.ru/win/books/articles/mezenzeva.htm](http://www.owl.ru/win/books/articles/mezenzeva.htm)
20. Мягков А.Ю. Использование экспертных оценок при диагностике неискренних ответов респондентов // Социологический журнал. 2002. №03.
21. Мягков А.Ю. Опросные методы сбора данных: предпочтения респондентов. Социологические исследования. 2000. №8. URL: <<http://www.ecsocman.edu.ru/socis/msg/198111.html>>.



22. Назарова И.Б. Качество опроса: Факторы не ответов // Социологические исследования. 1999. №11.
23. Парсонс Т. Система современных обществ. Москва: Аспект-Пресс, 1998. 250 с.
24. Смирнова А. В. Представления школьников и студентов о гендерных ролях мужчин и женщин в современном российском обществе // Женщина в российском обществе. 2005. № 1/2. С. 26—33.
25. Пушкарева Н. Л. Историческая феминология, женская и гендерная история: итоги и перспективы, 1999, с. 26-27. [https://portal.edu.asu.ru/pluginfile.php/455877/mod\\_resource/content/1/](https://portal.edu.asu.ru/pluginfile.php/455877/mod_resource/content/1/)
26. Разработка гендерной статистики. Справочное руководство для обучения статистиков, подготовленное целевой группой ЕЭК ООН по гендерной статистике с участием различных экспертов. ООН, Женева, 2010. – С. 1.
27. Рогозин Д. М. Когнитивный анализ опросного инструмента. М.: Институт Фонда «Общественное мнение», 2002.
28. Ростегаева Н.И. Банк социологических данных: история становления и перспективы развития. Социология. Ноябрь 1998. №10.
29. Ростова А. В. Методология изучения гендерных отношений // Вестник Самарского государственного университета. 2008. № 63. С. 221—226.
30. Садмен С., Бредберн Н., Шварц Н. Как люди отвечают на вопросы: применение когнитивного анализа в массовых обследованиях. М.: Институт Фонда «Общественное мнение», 2003.
31. Семенов, В.Е. Анализ и интерпретация данных в социологии: учебное пособие: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2009.
32. Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике. Департамент по экономическим и социальным вопросам Статистический отдел. Статистические документы. Серия F № 111. ST/ESA/STAT/SER.F/111. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016.
33. Социология гендерных отношений: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. З. Х. Саралиевой. М. : РОССПЭН, 2004. 270 с.
34. Стрелникова А.В. Исследовательские архивы: расширение возможностей для вторичного анализа // Социологические



исследования. 2005. No1. S. 126-131. URL: <<http://www.ecsocman.edu.ru/socis/msg/238637.html>>.

35. Юлдашев Н.Н. Ўзбекистонда оила институтига таъсир этувчи демографик жараёнлардаги ўзгаришлар. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июл-август, 2017 йил.

36. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснение, понимание социальной реальности. М.: «Добросвет», «Книжный», 1998.

37. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. – М.: ОМЕГА-Л, 2007.

38. Косолапое М.С. Методический эксперимент как метод изучения познавательных возможностей различных эмпирических индикаторов // Методы социологического исследования. 3-я Всесоюз. конф. Вып. В. М.: ИСАИ СССР, 1989. С. 26-29.

39. Радионова Н.В. Семантический дифференциал: обзор литературы / Н. В. Радионова // Социология: - М. - 1996. - № 7. - С. 191-192

40. Девятко И.Ф. Диагностическая процедура в социологии. Очерк истории и теории / И.Ф. Девятко. - М.: Наука, 1993.

41. Добренков В.И., Кравченко А.И. Методы социологического исследования: Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2004.

42. Толстова Ю.Н., Масленников Е.В. Качественная и количественная стратегии. Эмпирическое исследование как измерение в широком смысле. Социс. - 2000. -№ 10.

43. Куляков П.А. Измерение в социологию. Учебное пособие. – Новосибирск: НГАСУ. 2005.

44. Убайдуллаева Р.Т. Метод «самодialogа» в исследовании менталитета студентов / Р. Т. Убайдуллаева // Социологические исследования. - 2013 - №3.



## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Gender tadqiqotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari .....	6
Turli fanlar (sohalar) doirasida gender tadqiqotlarining o'rni va istiqbollari .....	14
Gender tadqiqotdarni o'tkazish bosqichlari .....	26
Gender muammolarini o'rganish: sifatiy va miqdoriy usullar.....	30
Tadqiqotlarda gender statistikasi ko'rsatkichlaridan foydalanish.....	33
Hujjatlarni tahlil qilish gender tadqiqotlarining muhim usuli sifatida.....	45
Gender tadqiqotlarda so'rov usulining qo'llanilishi.....	48
Gender munosabatlarni tahlil qilishda fokus guruh usuli.....	56
Gender munosabatlarni sifatiy tahlil qilishda biografik usulning o'rni .....	63
Gender munosabatlarni baholashda kuzatish usuli .....	68
Gender tadqiqotlarda ekspert fikri asosida xulosa berish.....	73
Glossariy.....	84
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	87



# GENDER TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI VA USULLARI

“Mahalla va oila” nashriyoti  
Toshkent – 2024

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**  
Muharrirlar: **U. Yunusov,**  
**O’. Namozova**  
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**  
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro’yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 11.11.2024.  
“Segoe UI” garniturası. Qog’oz bichimi: 70x100 1/16  
Nashriyot bosma tabog’i 5,3.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug’bek tumani,  
M.Ismoilıy ko’chasi 1-G uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy ko’chasi, 8-uy.

ISBN 978-9910-8908-1-9



9 789910 890819